

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**S. ABDIRASILOV, N. TOLIPOV**

# **Tasviriy san‘at o‘qitish metodikasi**

**(amaliy mashg‘ulotlar)**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent – 2007**

74.268.51

S. Abdirasilov, N. Tolipov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T., «ALOQACHI», 2007, 144 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish masalalari yoritilgan. Unda umumiy o'rta ta'lim maktab, kasb-hunar kollejining tasviriy san'at dasturini o'rganish va uni rejalashtirish, har bir mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash hamda ularning har biriga ko'rgazmali qurollar tayyorlash, namunaviy darslarni tashkil etish va o'tkazish, keyin ularni tahlil qilish, pedagogik tasvirlar ishlash uslublari, tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish haqida metodik tavsiyalar berilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv pedagogika instituti va universitetlarining «tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» - 5140700 bakalavr yo'nalishining talabalari, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar va pedagogika kolleji talabalari uchun ham mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: – F. Musaqulov

*Taqrizchilar:* S.S. Bulatov – Nizomiy nomli TDPU, Amaliy san'at kafedrasining mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor;  
N. Abdullayev – K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayin instituti professori, san'at-shunoslik nomzodi.

20.07 A 4258	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Mh
-----------------	--

HO 33468  
29!

ISBN 978-9943-326-15-6

© «ALOQACHI» nashriyoti, 2007.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>5</b>
<b>1-bob. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarining umumiy masalalari</b>	
1.1. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarning maqsadi va mazmuni.....	8
1.2. O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy va faxriy a'zolari.....	9
1.3. Tasviriy san'atni o'qitilish jarayonida milliy istiqloq g'oyasi.....	11
1.4. Pedagogika ilmiy tadqiqot metodikasi.....	14
<b>2-bob. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar mazmuni</b>	
2.1. Tasviriy san'at darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	21
2.2. Umumiy o'rta maktabning tasviriy san'at dars mavzularini taqvimiy tasvirli rejalashtirish.....	22
2.3. Dars konspektini va mashg'ulot ishlanmasini tuzish.....	26
<b>3-bob. O'rta maxsus, kasb-hunar va pedagogika kollejlarda tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar mazmuni</b>	
3.1. Mashg'ulot mavzularini tasvirli rejalashtirish.....	31
3.2. Dars konspektini va mashg'ulot ishlanmasini tuzish.....	34
3.3. Kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi.....	72
3.4. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash.....	82
3.5. Tasviriy san'at darsini tahlil qilish.....	86
<b>4-bob. Tasviriy san'at darslarida pedagogik tasvirlar ishlash</b>	
4.1. Pedagogik tasvirlarning xususiyatlari.....	88
4.2. Pedagogik tasvirlarning turlari.....	89
4.3. Rasmlarni bajarish yo'llari va topshiriqlar.....	91

## **5-bob. Tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish**

<b>5.1. Talabalarining san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish.....</b>	<b>109</b>
5.2. Tasviriy san'at darslarida etimologik tahlil.....	113
5.3. Tasviriy san'at atamalarini o'rgatish metodikasi.....	116
5.4. Tasviriy san'at asarlarini idrok etish.....	118

## **6-bob. Tasviriy san'at metodikasidan kurs ishi**

6.1. Kurs ishining tuzilishi va ahamiyati.....	121
6.2. Kurs ishiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	122
6.3. Tadqiqot metodlari.....	125
6.4. Kurs ish matnini yozish.....	126
6.5. Kurs ishini himoyaga tayyorlash.....	128

Foydalaniladigan adabiyotlar.....	142
-----------------------------------	-----

## KIRISH

Tasviriy san'at fanlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi — «san'at» fakultetida o'rganiladigan asosiy kurslardan biri bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarni amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalar badiiy-kasbiy bilimi, malaka va mahoratini har jihatdan mukammal (professional) va jiddiy o'zlashtirishni hamda ularni maktab o'quvchilari va kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida yondasha bilishni va o'rgatishni nazarda tutadi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurti talabalar uchun mo'ljallangan, «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kursi dasturi asosida yozilgan.<sup>1</sup>

Mazkur o'quv qo'llanmada tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar vazifasini tayyorlash va uni bajarish bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalar yoritiladi. Buni tayyorlashda fanning namunaviy dasturi va metodik ko'rsatmalariga, shuningdek, san'at fakultetida uzoq yillik mehnat tajribamizga ham asoslandik.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan, uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari» qisnida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarini tashkil

<sup>1</sup> «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» fani dasturi. Bakalavr yo'nalishi — 5140700 «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi». T., 2003.

etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida» qaroriga muvofiq Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog-kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasi, deb belgilandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari uchun tasviriy va amaliy san'atni o'qitilishini takomillashtirish borasida bir qator mualliflar tomonidan Oliy o'quv yurtlari bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar tayyorlangan va chop etilgan. Shularni e'tiborga olib bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi fanning barcha bo'limlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, boshqa fanlar bilan aloqalari, san'atshunoslik va gumanitar yo'nalishlari haqida aniq tasavvur va ularni amalda qo'llash malakalariga ega bo'lishi zarur. Kasb-hunar kollejlarda yosh, badiiy ijodkor talabalarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim rassom-pedagoglar oldiga mazmunan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shuning uchun ushbu qo'llanmada o'quv dastur asosida fan o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan mavzularni yoritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmun xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma'lumki, o'qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarini joylashishi (o'quv reja, dastur), ta'lim prinsiplari va o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika so'zi, avvalo, ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma'nosiga aytiladi.

«Metod» grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» ma'nosini anglatadi. Pedagogikada o'qitish metodlari deganda, umumiy o'rta maktab, o'rta maxsus kasb-hunar kolleji o'quvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

Amaliy metodika esa ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o'rganadi. Pedagogik mahorat, ko'nikmalarni o'rganish va ularni egallashga qaratilgan ma'lum iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo'lishini talab etadi, chunki tasviriy san'at pedagogikaning mashaqqatli va murakkab hamda mas'uliyatli sohasidir.

O'qitish san'ati amaliy mashg'ulotlar mobaynida, uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi.

Demak, tasviriy san'at o'qitish metodikasi pedagogika ilmining ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o'quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo'llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Hozirgi kundagi tasviriy san'at o'qitish metodikasi yillar davomida shakllandi va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Respublikamizda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasini shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlar (N.U. Abdullayev, S.U. Abdullayev, B.Z. Azimova, B. Azimov, A.I. Inog'omov, M.N. Nabiyev, B.N. Oripov, S.S. Bulatov, B.B. Boymetov, R. Hasanov, Q. Qosimov, A. Sulaymonov, N.X. Tolipov)larning qator izlanishlari, shuningdek, N.N. Rostovsevnning «Методика преподавания изобразительного искусства в школе», «Учебный рисунок», «Академический рисунок», V.S.Kuzinning «Методика преподавания изобразительного искусства в начальных классах», E. Shoroxovning «Композиция», A. Yashuxiinning «Живопись» nomli o'quv qo'llanmalari hamda R. Hasanovning «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» nomli darsligining ahamiyati katta bo'ldi. Mazkur ishning mazmunida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik jihatdan bilim va mahoratlar bilan qurollantirish hamda o'rgatish san'atini egallashga yordam berish maqsad qilib qo'yilgan.

---

<sup>1</sup> N.U. Abdullayev. San'at tarixi. 2-jild. T.: San'at, 2001, S.U. Abdullayev. Qalamtasvir. Buxoro. 2002, B.Z. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1984, B. Azimov. Qalamtasvir. Buxoro. 2002, A.I. Inog'omov. Bosklang'ich tasviriy san'at asoslari. T.: 1996, M.N. Nabiyev. Rangshunoslik. T.: O'qituvchi, 1995, B.N. Oripov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T.: Ilm-Ziyo, 2005, S.S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: Mehnat, 1991, B.B. Boymetov. Qalamtasvir. T.: Musiqa, 2006, R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: Fan, 2004, Q. Qosimov. Naqqoshlik. T.: O'qituvchi, 1990, N.X. Tolipov. Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.



## **1-bob. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARINING UMUMIY MASALALARI**

### **Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarning maqsadi va mazmuni**

Badiiy ta'lim mazmunini oliy o'quv yurtlarida amalga oshirish jarayonida tasviriy san'at sohasidagi bilim materiallarni har jihatdan mohirona (professional) va jiddiy o'zlashtirishni nazarda tutadi. Buning uchun qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, san'at tarixi va san'atshunoslik asoslarida ko'rsatilgan bilim hamda malakalarni metodik jihatdan o'rgata olish sirlarini bilish kerak.

Bular quyidagilar: mashg'ulot o'tishning umumiy talablari; o'tiladigan mavzuga tayyorgarlik ishlarini bilish va to'g'ri amalga oshira olish, mashg'ulotni rejalashtirish; mashg'ulot o'tishning turli usul hamda uslublarini va o'z ijodiy yondashishlari; o'quvchi va yoshlarga nisbatan mehrlil, hamfikr bo'la olish hamda ularning ruhiyatini o'rganib ta'lim berishda to'g'ri yondashish; mashg'ulot mazmunini o'quvchi va yoshlarga yetkaza bilish va amaliy ijodkorlikka yo'naltirish.

Amaliy mashg'ulotlarni asosiy yo'nalishlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining dars jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va metodik jihatdan mantiqiy ravishda amalga oshirish, sinf taxtasida bo'r bilan tasvir ishlash ko'nikma va mahoratlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasining fan dasturida quyidagi amaliy ish mazmuni nazarda tutilgan:

1. O'quv yili uchun fan mashg'ulot mavzularining taqvimiy tasviri rejalashtirilish jadvalini tayyorlash.
2. Tasviriy san'at dars turlari bo'yicha konspektini va mashg'ulot ishlanmasini ishlab chiqish.
3. Tasviriy san'at darslariga ko'rgazmali qurol eskizini tayyorlash.



4. Tasviriy san'atdan ko'rgazmali darsni bir qismini metodik jihatdan tayyorlash va uni namoyish etish.

5. Tasviriy san'at darsini tahlil etish tuzilishini o'rgatish.

6. Pedagogik tasvirlar ishlash (xomaki rasmlar, turli tasvirlash vositalar va sinf taxtasida bo'r bilan ishlash).

7. Tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish va ularni badiiy tahlil qilish.

8. Kurs ishining ahamiyati va tuzilishi.

Yuqorida keltirilgan amaliy vazifalar mazmuni talabalar tomondan professor-o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Umumiy o'rta ta'lim maktab va kasb-hunar kollejida tasviriy san'at darslarini o'qituvchi qanday qilib tashkil etish va uni rejalashtirish malakalarini rivojlantirish yo'llari tavsiya etiladi.

Bo'lajak rassom-o'qituvchilarining o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis sifatida shakllanishini tashkil etish ta'lim jarayonining asosiy vazifasidir.

## **1.2. O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy va faxriy a'zolari**

XVII asrning oxiriga kelib turli davlatlarda badiiy Akademiyalar tashkil etilgan.

XVII asr tasviriy san'atni o'qitish metodikasi qalamtasvirni fan sifatida akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirining pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi «qalamtasvir akademiyasida» ishlab chiqildi.

Yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul va namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli 1648-yilda Parijda Qalamtasvir va haykaltaroshlik bo'yicha Qirollik akademiyasi, 1660-yili Rimda badiiy Akademiya, 1696-yili Berlinda, 1753-yili Madridda San-Fernando, 1757-yili Peterburg akademiyasi, 1768-yili London Badiiy akademiyasi tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvardagi «O'zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida»gi Farmoniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi «O'zbekiston Badiiy akademiyasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 131-son qarorining 11-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-may oydagi 224-sonli qarori bilan O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi Majlisining O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy va faxriy a'zolariga nomzodlar haqidagi takliflari ma'qullandi.

**a) Quyidagi ijodkorlar O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zolari etib tasdiqlandilar:**

**Abdullayev Sa'dulla Asadullayevich** — rangtasvirchi, dosent.

**Azimov Sharif Tursunovich** — kulol.

**Boltayev Botir** — rassom-ta'mirchi.

**Burmakin Vladimir Ivanovich** — monumentalchi rassom, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Jalolov Bahodir Fazliddinovich** — monumentalchi rassom, O'zbekiston xalq rassomi.

**Jabborov Ilhom** — haykaltarosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Izentaev Jollibay Tangirbergenovich** — rangtasvirchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Ikromjonov Akmaljon To'rayevich** — rangtasvirchi, Davlat mukofoti sohibi.

**Mirjalilov Tohir Jamolovich** — rangtasvirchi.

**Mirzayev Alisher To'laganovich** — rangtasvirchi, O'zbekiston xalq rassomi.

**Muhammadjonov Shomahmud Shohodiyevich** — miniaturachi-rassom, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sohibi.

**Nuridinov Akmal Vahobovich** — rangtasvirchi.

**Rahimov Akbar Muhitovich** — kulol, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Toxtayev Azamat Ramziddinovich** — dizaynchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor.

**Umarbekov Javlyat Yusupovich** — rangtasvirchi, O'zbekiston xalq rassomi.

**Xolmatov Niyozali** — miniaturachi rassom.

**Yusupov Sharofiddin Isomiddinovich** — kulol, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Quttimurodov Joldasbek Jantayevich** — haykaltarosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Qo'ziyev Tursunali Karimovich** — rangtasvirchi.

**Hakimov Akbar Abdullayevich** — san'atshunoslik doktori, professor.

**Haqberdiyev Xudoyberdi** — kulol.

**b) Quyidagi ijodkorlar O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a'zolari etib tasdiqlandilar:**

**Abdullayev Abdulhaq Oqsoqolovich** — rangtasvirchi, O'zbekiston xalq rassomi.

**Ahmedov Rahim** — rangtasvirchi, professor, O'zbekiston xalq rassomi.

**Basharov Qutluq Basharovich** — grafik rassom, professor, O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti sohibi.

**Mahmudov Sayidahmad Norqo'ziyevich** — naqqosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Mirzarahimov Qosim** — haykaltarosh, O'zbekiston xalq rassomi.

**Nahiyev Malik** — rangtasvirchi, professor, O'zbekiston xalq rassomi.

**Toqtosh Rafail Hodiyeovich** — san'atshunoslik doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Usmonov Mahmud** — naqqosh, O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti sohibi.

**Choriyev Ro'zi Choriyevich** — rangtasvirchi, O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti sohibi.

**Shin Nikolay Sergeyeovich** — rangtasvirchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Qo'ziyev Ne'mat Mirzaboyevich** — rangtasvirchi, professor, O'zbekiston xalq rassomi.

*Vazirlar Mahkamasining raisi I. Karimov*

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan Akademiyalar bilan bir qatorda nafis san'at maktablari ham mavjud. Maktablar o'quv adabiyotlari, badiiy maxsus ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktablarda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodik va o'ziga xos ravishda tuzilgan dasturlar asosida o'qitish tizimida olib boriladi va ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar etishib chiqmoqdalar.

### **1.3. Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida milliy istiqloq g'oyasi**

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish muammosi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

«Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan oqilona amalga oshirish lozim»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Milliy istiqloq g'oyasi: Asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent: O'zbekiston, 2000 y.

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rtta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviriy san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

«Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vatanga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir»<sup>1</sup>.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan «milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» risolasida qayd etilgandek, milliy istiqlol mafkurasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, ustozshogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan oziqlanadi. Shu sababdan barcha ta'lim muassasalari tayanch o'quv rejalariga o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini huquqiy demokratik jamiyat qurish tamoyillariga moslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kurslariga kiritilgan.

Tasviriy san'atni o'qitilish jarayonida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ham o'rganilayotgan mavzu mazmuniga qarab xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy boyliklari, ustoz va shogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kiradi, — degan savol tug'ilishi tabiiy. Milliy qadriyatlar har bir xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan va yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari,

---

<sup>1</sup> A. Karimov. Hushyorlikka da'vat. Toshkent, O'zbekiston, 1999, 16-bet.

marosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan o'ziga xos tamoyillari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasmlarumumlari, urf-odatlar, marosimlari ham milliy qadriyatlarga kiradi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun auditoriya, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzusiga bog'liq holda mamlakatimizning san'at ko'rgazmalar zali, muzeyi, galereyasiga ekskursiyalar, ulardan oqilona foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar, respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy rivojlanish tamoyillari, tasviriy san'at rivojiga hissa qo'shgan rassomlarning badiiy meroslari, tasviriy va amaliy san'atga oid traktatlar, hikmatli hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar va maqollardan foydalanish, Respublikamizdagi mavjud san'at muzeylarda saqlanayotgan noyob durdonalarni o'rganish, o'tkazilayotgan «san'at bayrami» kabi tadbirlarga milliy ruh kiritish tavsiya etiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat rivoji davomida insonlar tomonidan yaratilgan va bebaho mulk sanalgan moddiy va ma'naviy boyliklar, madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik va boshqa qarashlar yig'indisi sanaladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar zaminida shakllanadi, ya'ni biror bir millatga mansub milliy qadriyatlar rivojlanib, yillar davomida takomillashib, boshqa millat va elatlar tomonidan e'tirof etilib tan olinadi. Shu tariqa milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Masalan, o'rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasi o'zbek xalqi uchun milliy qadriyat, jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat sanaladi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– tasviriy san'atni paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;

– Sharq mutaffakirlari va allomalarning xalq pedagogikasiga qo'shgan hissalarini yoritish;

– buyuk rassomlarimizning umumbashariy mulkka aylangan noyob asarlarini o'rganish;

– tasviriy san'at fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish.

Talabalarining qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish uchun o'qituvchi milliy mafkuraning asosiy g'oyalari chuqur anglashi, olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mazkur

g'oyalarga asoslanishi va shu yuksak maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, talabalar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda tasviriy san'at mashg'ulotlari, ekskursiyalar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog'liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim.

#### 1.4. Pedagogika ilmiy tadqiqot metodikasi

Har qanday davlat yuqori taraqqiyot darajasiga erishish uchun, eng avvalo, iqtisodiyot ustuvorligini ta'minlashi, odamlar orasida ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarni tiklash talab etiladi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay oladi...».<sup>1</sup>

Yoshlarning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi va unga ko'nikma hosil qilishi, ularning talabalik davrlaridan boshlanadi. Olgan bilim va ko'nikmalarini keyingi ilmiy izlanish jarayonlarida yanada takomillashtiradi va hayot bilan bog'lab olib borishga muvaffaq bo'ladilar.

Ilmga sadoqatli odamlar doim qanoatli, xushfe'l va boshqalarga ibratli bo'lishadi.

Bo'lajak tadqiqotchi o'z fanini chuqur egallagan bo'lishi va uning muammolari ustida doim shug'ullanishi shart. U tadqiqot ishiga yondosh bo'lgan boshqa fanlardan ham yetarli darajada xabardor bo'lmog'i lozim. Shuningdek, falsafa fanining umumiy qonuniyatlarini va ilmga aloqador tarmog'ini o'zlashtirib olishi, xorijiy tillardan bittasini egallagan bo'lishi kerak.

Demak, ilm bilan shug'ullanish — izlanish va tadqiqotlar olib borish, ya'ni qonuniyatlarni kashf etish va shu yo'l bilan jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish demakdir.

Pedagogik yo'nalishdagi mavzuda tadqiqot ishlarini olib boruvchilar ko'proq metodik ishlar, pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish bilan shug'ullangan yosh tadqiqot izlanuvchi, aspirant va tajribasiz ilmiy xodimlarni tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> I.Karimov. O'zbekiston XXI asr ho'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997. 150-bet.

O'quv fani sohasidagi ilmiy-metodik tadqiqotning asosiy maqsadi, fanni ta'lim-tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini ishlab chiqish hamda o'quvchilarni bilim, malaka va o'quv vazifalarini chuqur o'zlashtirish usullari va ijodiy qobiliyatlarini o'sishida yordam beradigan ta'limni samarali metodlari, tashkiliy shakl va vositalarini amaliyotga tatbiq etish muammolarini loyihalashdan iboratdir.

Yuqoridagilardan ma'lumki, o'qituvchi bilan metodistlarning ilmiy tadqiqot faoliyatining texnologiyasi farqlanib har biri o'z texnologiyasiga ega. Buni esa ularning faoliyatidagi har xil maqsadi orqali va so'nggi turli natijalar bilan izohlash mumkin:

	Maqsad	Natija
O'qituvchi	O'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash	Bilim, malaka, ko'nikma; dunyoqarash, o'quvchilarning tarbiyaligi.
Metodist	Ilg'or pedagogik tajribaning umumlashi va ilmga tayangan holda o'qituvchiga o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, ta'lim va tarbiya berishning samarali metod, usul va vositalar bilan qurollantirishda yordam berish.	Metodik tavsiyalar, darslarning ishlanmasi va hokazolar.
Tadqiqotchi	O'quv-tarbiyaviy jarayonni obyektiv qonuniyatlarini tadqiq etish.	Uzluksiz metodik tizim, ilmiy klassifikatsiya, pedagogik hodisalarning bog'liqligini yaratish.

Izlanuvchilarning faoliyat maqsadlaridagi farqlarni har bir tadqiqotchi bilishi shart.

Ilmiy pedagogik tadqiqotning izlanish jarayonini binoning qurilishi bilan taqqoslash mumkin: avvalo, poydevor, keyin esa tayanchlari (tirgovich) va so'ng tomi yopiladi. Ilmiy tadqiqot ishi ham mustahkam poydevordan boshlanadi.

Har bir pedagogik tadqiqotning asosiy negizi tegishli adabiyotlarni chuqur nazariy tahlili asosida belgilanadi. Bu bilan adabiyotlarda tayyor retseptlar bor yoki tayyor ilmiy ishlardan yana bir boshqa ilmiy tadqiqot yaratiladi degani emas. Pedagogika sohasini nazariyasi va amaliyotining so'nggi yangi yutuqlari bilan tanishish, ularning didaktik tahlili, tadqiqotchining potensial imko-

niyatlarini va fikrlash faoliyatini faollashtirishga undash, yangi g'oyalarni tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ya'ni: konsepsiya nazariyasi, ilmiy klassifikatsiya, metodik tizimning birligi va boshqa kabilar kiradi.

Muvaffaqiyatli izlanishlar turli ilmda, xususan, pedagogika tadqiqotida ko'proq tadqiqot metodikasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogika tadqiqot masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar qanchalik ko'p bo'lmasin bu ilm sohasining tadqiqot metodlari haqida yaxlit tizimli tasavvurlar hosil qilish qiyin. Shuning uchun yosh ilmiy izlanuvchilar o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi.

Ilmiy metodik tadqiqotning mantiqiy tuzilishi va qayd etilgan natijalarni qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

### **Ilmiy-metodik tadqiqotning taxminiy rejasi**

1. Kirish: masalani qo'yish, dalillar, mavzuning dolzarbliligi. Tadqiqot muammosi, uning maqsadi, farazi, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqotning vazifalari.

2. Izlanish rejasi. Bob va paragraflar nomi.

3. Ilmiy tadqiqot boblarini taxminiy mo'ljallangan mazmuni.

4. Tadqiqot metodikasi. (Qanday maqsadlarda umum qabul qilingan didaktikadagi izlanishning shakli va metodlari hamda maxsus metodlari dalil uchun qo'llaniladi).

5. Eksperiment o'tkazish uchun materiallar.

### **Ilmiy-metodik tadqiqotning tuzilishi va mazmuni**

1. **Kirish**—yechimini kutayotgan muammo, dalil, mavzuni dolzarbli.

Odatda, kirish qismida umumiy o'rta ta'lim maktab, o'rta maxsus kasb-hunar kolleji va Oliy o'quv yurti yoki boshqa o'quv muassasalarining holatining tahlili asosida muammo dolzarbligini dalili yoritiladi. Mazkur masalaning holati pedagogikada: (didaktikada, metodikada) nima tadqiqot qilingan, nimalar yechimsiz qoldi, dastlabki yoki keyingi tadqiqotni talab etadi. Keyin tadqiqot muammosi shakllantiriladi - tadqiqot olib borilmagan, noma'lum, noaniq yoki pedagogik jarayonining dolzarb masalalari yetarli darajada to'liq o'rganilmagan.

2. **Muammo** — ma'lum bir sohada yechimini kutayotgan masala. Tadqiqot muammosi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular jamiyatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar ta'sirida, ta'lim amaliyotiga buyurtmalar yoki pedagogik ilmning rivojlanishiga bog'liq holda tug'iladi.



**3. Tadqiqot maqsadi** — ishlash jarayonida nimaga erishishining taxminiy mo'ljali. (O'quv jarayonini qanday obyektiv qonuniyatlari ishlab chiqilgan, qanday yangiliklar ta'lim metodi va mazmuniga kiritilgan).

Ko'pincha boshlovchi tadqiqotchilar ilmiy tadqiqot maqsadi bilan vazifasini tenglashtiradi. Muammoning maqsad va vazifalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun biron bir masalada quramiz. Yaxshi yashash uchun (maqsad) yaxshi ishlash kerak (vazifa).

Ayrim paytda tadqiqot maqsadi mavzu nomidan kelib chiqadi. Biroq aniq maqsad qo'yilmasa, ishning samarasi ham bo'lmaydi.

**4. Faraz**—tadqiqotchi tomonidan maqsad qilib qo'yilgan, ammo ilmiy asoslanmagan bo'lsada, mantiqan bog'liq tadbirlar majmuiga taxmin (faraz) deyiladi.

Maqsadga yetishish taxmini mavjud qonuniyatlarda asoslab berilgan bosqichini konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin (faraz) deyiladi.

Ilmiy asoslanib maromiga yetkazilgan taxmin konsepsiyaga aylanadi. Har qanday ilmiy asoslangan loyihani amalda sinab ko'rish talab qilinadi. Maqsadga yetishishning ilmiy asoslangan loyihasini amalda sinab ko'rishni tajriba deyiladi.

Odatda taxmin (faraz) tuzilishi taxminan quyidagi tarzda ifodalanadi: «agarda bu-bu qilinsa, unda shunday pedagogik natijalarni qo'lga kiritish mumkin».

**5. Tadqiqot obyekti** — muayyan ilm tarmog'i nimani o'rganadi, degan savolga javob beradi.

**6. Tadqiqot predmeti** — muayyan ilm tarmog'i nimaning nimasini o'rganadi, degan savolga javob beradi (o'qituvchi yoki o'quvchilar faoliyati-dars, uni tashkil etish shakllari, sinfdan tashqari ishlar, ulami o'tkazish mazmuni, metodi va vositalari va h.k.).

**7. Tadqiqot vazifalari**, uning maqsadini aniqlash va ilmiy izlanish qaysi yo'nalishda yuritilishi haqidagi tasavvur hosil qilish.

**8. Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati va uning yangiligi.** Tadqiqot natijalari pedagogika nazariyasini rivojiga qanday ta'sir etishi, ular qanday yangi va amaliy qiymatga ega, tadqiqot jarayonida qanday yangilik, noma'lum pedagogik faktlar ochilishi bayon qilinadi.

**9. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi.** O'tkazilgan tadqiqot ishlarni natijasi sifatida nashr qilib, konferensiyalar, seminarlar va pedagogik o'qishlarda chiqishlar orqali amalga oshiriladi.

**10. Tadqiqot perspektivasi.** Ushbu soha bo'yicha keyingi tadqiqot perspektiva rejasi ko'rsatiladi.

## Pedagogik tadqiqotning bosqichlari

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi sohasida tadqiqotning asosiy maqsadi:

- ta'lim xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlash;
- dasturdagi mavzularni o'rganishda samarali metodlar va uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;
- tasvirlash qoidalari ketma-ketlik qonuniyatlarining tizimini va elektron darsliklar ishlab chiqish;
- talaba va tasviriy san'at o'qituvchilari faoliyatining badiiy tayyorgarlik darajasi bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy tadqiqot ishining muhim shart-sharoiti fanning o'quv muassasasidagi o'qitish holatini o'rganishdir. Ishni amaliyotda mukammal o'rganish usullaridan biri – bevosita dars jarayonidir. O'qituvchi kundalik dars berish jarayonida talabalarni dastur, darslik, didaktik materiallar va ko'rgazmali qurollarga bo'lgan munosabatlarni ko'rib chiqadi va ta'lim jarayonining kamchiliklarini tezroq tushunib, ularni tuzatish yo'llarini belgilab oladi.

Bo'lajak o'qituvchilar talabalik yillaridan boshlab pedagogik tadqiqot unsurlari bilan tanishib boradilar:

- tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar, individual mashg'ulotlarga didaktik materiallar, test-savollar, o'quvchilarni badiiy tayyorgarlik darajasini tahlil qilishadi, talabalar ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza va ilmiy maqolalar bilan qatnashishadi.

Keyinchalik biron mavzuni chuqurroq o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot bilan shuqullanadilar.

Pedagogik tadqiqotning jarayoni quyidagi qator bosqichlardan iborat. Ularning har birining muayyan vazifalari mavjud.

***Birinchi bosqich – o'qituvchilar faoliyatlarini va tegishli adabiyotlarni o'rganish asosida tadqiqot muammolarini aniqlash.***

Adabiyotlar manbayini o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlanishi kerak:

- ishdagi muallifning asosiy g'oyasi, uning ishlanish muammosidagi pozitsiyasi;
- an'anaviydan uning pozitsiyasi nima bilan farq qiladi, muammoni o'rganishda qanday yangilik kiritdi;
- uning ishidagi mavzularda qanday asosiy savollar javobsiz qolganligi;
- muammoni keyingi tadqiqotlarida qanday masalalar hal qilish zarurligi.

***O'qituvchilarning ish tajribasini o'rganishda quyidagilar aniqlanishi kerak:***

- o'qituvchi qanday qiyinchiliklarga duch keladi;
- qiyinchilik va kamchiliklarning sabablari...

Agarda tadqiqot, masalan, o'quvchilarning tasviriy san'at darslarida fazoviy tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, unda tadqiqot vazifalari quyidagicha:

1. O'quvchilarni fazoviy tasavvurini o'quv va darsdan tashqari faoliyatida shakllantirish xususiyatlarini aniqlash.
2. Fazoviy tasavvurini shakllantirish mashqi jarayonida o'quvchilarning o'quv faoliyatini o'rganish.
3. O'quvchilarni fazoviy tasavvurini shakllantirish uchun badiiy bilim va ko'nikmalarini samarali oshirishini ko'rsatuvchi shart-sharoitlarini aniqlash. O'qituvchilar uchun metodik tavsiyanomalar ishlanmasini tavsiya etish.

Muammo aniqlanadi va dastlabki ilmiy ish rejasining dasturi ishlab chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ilmiy asosi shakllantiriladi.

***Ikkinchi bosqich – tadqiqot farazini belgilash.*** Faraz – bu taxmin, ma'lum muammoni hal qilish yo'li ko'rsatilgan taklif, masalan, agarda o'quvchilarning fazoviy tasavvurining shakllantirishini o'rganish metodikasining asosi bo'lishini hisobga olib bosqichma – bosqich yondashish joriy qilinsa, qo'llanilayotgan maxsus mashqlar qiyinchiliklarni yengib chiqishda yordam beradi va o'quvchilarni fazoviy tasavvurini shakllantirishda chuqur tushuncha va bilimlar bilan ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida faraz (taxmin) o'zgarmay qolmaydi. Dاللarning to'planishiga ko'ra, tadqiqotchi ularni taqqoslab, farazini aniqlaydi va aniq asoslangan ko'rinishga keltiradi.

***Uchinchi bosqich – farazni sinash va nazariyani asoslash.*** Bunday sinov turli ilmiy tadqiqot metodlari (kuzatish, o'quvchilarning bilimini og'zaki va yozma tekshirish, o'qituvchilar tajribasi va pedagogika tajribalarini tahlil qilish va umumlashtirish va boshq.)ni qo'llash bilan eksperiment orqali amalga oshiriladi.

***To'rtinchi bosqich – tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va tatbiq qilish.***

Bu bosqichda tadqiqot natijalari tahlil qilinadi, jadval, grafik va matematik statistik ko'rinishdagi bayonnoma ishlanadi, ishni adabiy tilga moslab rasmiylashtiriladi, tadqiqot amaliyotida qat'iy ketma-ketlikda bo'lmasligi ham mumkin. Tadqiqotchi ishlash jarayonida boshlang'ich bosqichlariga qaytishi, ayrim holda bir vaqtning o'zida

bir necha bosqichlarda ish olib borilishi ham mumkin. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishga — dasturlar, darsliklar, monografiyalar, metodik tavsiyalar, maqolalar kiradi.

#### **Tadqiqot metodlari:**

**Tadqiqot metodlari:** Tasviriy san'at metodikasida umumilmiy ham va maxsus tadqiqot metodi ham qo'llaniladi.

Umumilmiyga nazariy tadqiqot metodi, kuzatish, suhbat, eksperiment va boshqalar kiradi.

**Nazariy metod,** asosan, adabiyotlarni o'rganish, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar bilan ishlash, o'rganiladigan zarur bo'lgan asarlar ro'yxatini tuzishdan boshlanadi (kitoblar, jurnallar, maqolalar to'plami va h.k.).

**Kuzatish** — pedagogik jarayonga aralashmasdan uzoq vaqt tahlil qilish ishlariga asoslangan. Kuzatish to'g'ridan-to'g'ri dars jarayonida yoki sirdan (ijodiy ishlar, ta'lim muassasasini hujjatlar bilan tanishish) bo'lishi mumkin. Kuzatish reja asosida olib borilishi kerak.

**Suhbat** — talabalar yoki o'qituvchilar bilan o'tkazilishi mumkin. Talabalar bilan o'tkazilganda, ularni fikrlash yo'nalishini aniqlash maqsadida suhbatlar uyushtiriladi. Suhbat natijalari bayonoma, stenografiya yoki magnitofon yozuvlari ko'rinishida batafsil yozib olinib keyin tahlil qilinadi.

**Anketa so'rovi** — qo'yilgan maqsadlarga mos ravishda tadqiqotchi talabalar yozma javob berishi kerak bo'lgan savollarni tuzib chiqadi. Savollar javob beruvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

**Tajriba sinov** — tabiiy va laboratoriya sharoitlarida o'tkazilishi mumkin. Uning o'tkazilish muddatlariga ko'ra, tajriba-sinov o'qitish yoki tajriba sinov darsi bo'lishi mumkin. Natijalarni umumlashtirishning keng tarqalgan turidan biri — natijalarni taqqoslash.

O'qitish metodikasida umumilmiy tadqiqot ishlari bilan birgalikda maxsus tadqiqotlar ham o'tkaziladi. Ularning qo'llanilishi ijodiy ishlarni bajarishda tasvirlash qobiliyatlarini aniqlash, zaruriyat va tasvirlashda kerakli ko'nikmalarni shakllantirish bilan belgilanadi.

Maxsus metodlarga: siklografiya — harakat kinematikasini qayd qilish; okulografiya — ko'z harakatlarini qayd qilish; multiplikatsiyalash — grafik tasvirlarning bajarishini ketma-ketligini qayd qilish kabilar kiradi.

Tadqiqot natijalari ma'ruza, maqola, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, risola, o'quv qo'llanmalari, diafilm, jadval va boshqa ko'rinishlarda tayyorlanishi mumkin.



## **2-bob. UMUMIY O'RTA MAKTABDA TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **2.1. Tasviriy san'at darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar**

Dars jarayoni – ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay, eng samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarida bo'layotgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'rifiy o'zgarishlar barcha predmetlar qatori tasviriy san'at darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi, zamonaviy talablarni qo'yimoqda. Bu talablarning asoslari quyidagilardan iborat:

1. Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni to'g'ri qo'ya bilish va ularni amalga oshirish.

2. Darsda ta'limning faol usul va uslublarni qo'llay bilish.

3. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'analari, jahon pedagogikasi, ruhshunosligi borasida yaratilgan yangiliklarni sintetik tarzda ishlatish va hokozolar.

«Zamonaviy talablar» tushunchasi san'at va fan sohasidagi yutuqlar, jamiyatning rivojlanish darajasini hisobga olib, darsga qo'yilgan talablar bo'lib, tasviriy san'at o'qitishning maqsad va vazifalariga mos holda keyingi o'quv-kasbiy hamda pedagogik faoliyatiga tayyorlashda xizmat qilishni bildiradi.

Tasviriy san'at darslarida milliy meros, qadriyat, madaniyat, san'at va buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, hikmatga to'la hadislarimiz, asotirlar, rivoyatlardan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, keyingi yillarda tajribali metodist olimlar, ruhshunoslar va amaliyotchi-o'qituvchilarning o'quv jarayonini tahlil qilish sohasida o'tkazilgan tadqiqotlari dars samaradorligini oshirishi, pedagogik va didaktik shart-sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda.

**Eng muhim shart-sharoitlar quyidagilar:**

– yangi avlod darsliklari, didaktik va metodik o'quv ko'rgazmali qurollar hamda o'qitishning innovatsion, pedagogik va axborot texnologiya vositalari bo'lishi;

– o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar bo‘lishi;

– guruhda yaxshi psixologik muhit bo‘lishi.

Umumiy pedagogik shart - sharoitlarga amal qilib, mavzuning didaktik maqsadi to‘g‘ri tashkil qilinsa, darsning sifati yuqori va samarali bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham darsning didaktik metodik maqsadini aniqlashga katta e‘tibor qaratilgan, bu esa didaktik tamoyillardan kelib chiqadi.

Darsni tashkil qilishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Darsning maqsadini belgilash. O‘quv-tarbiya jarayonining funksiyalari bo‘lgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalar aks ettirilishi.

Umumiy didaktik maqsadni (yangi tasviriy san’at atamalari, tushunchalarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, samarali ish metodlarni shakllantirish) aniqlash.

2. O‘quv materialining mazmunini belgilashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, dars materialining hajmi va murakkabligini belgilash. O‘quv materialining mazmunini tevarakatrof bilan bog‘lash, o‘tilgan materiallarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash; o‘quvchilarni mustaqil ijodiy ishlarining tizimini aniqlash, darsning jihozi hamda asosiy adabiyotlar, manbalarni belgilash.

3. Darsning didaktik va tarbiyaviy vazifalarini aniqlash. Amaliy ijodiy ishlarning kompozitsiya jihatdan murakkabligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fazilatlarini hisobga olgan holda mos bo‘lishi kerak.

4. O‘quv materialining mazmuni va didaktik maqsadlariga mos keladigan ta’lim metodi va usullarini tanlash.

5. Didaktik vazifalar darsning o‘zida bajarilishi. O‘quv materialining mazmunini rejalashtirish vaqtida dastur doirasidan chiqmaslik va hokazo.

## **2.2. Umumiy o‘rta maktabning tasviriy san’at dars mavzularini taqvimiy tasvirli rejalashtirish**

Dars – ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishning eng asosiy shaklidir. Dars ijod san’ati, yaratish san’atidir.

Namunaviy dastur asosida tasviriy san’at darslarini rejalashtirish – eng murakkab ishlardan hisoblanib – u mavzularni tasvirli rejalashtirish dasturi deb nomlanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini ko'rsatadi.

Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va malakalari, o'quv chorak va semestrlari va haftalarga taqsimlanishi kerak. Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) taalluqli emas. Ma'lumki, dars jarayoni — ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning javobini yechilishi — o'quv jarayonini tashkil qiluvchi o'qituvchining o'ziga bog'liq.

Ayrim bo'lg'usi o'qituvchi so'rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo'lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo'lsa, dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat o'tkazish darslarida ma'lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do'konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo'limida naturmort ma'lum bir narsalardan tuzilgan bo'lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo'lmasligi mumkin.

O'quv dasturlari aynan asliga muvofiq to'g'ridan - to'g'ri bajarilishini talab qilmayapti. U faqat qanday rassomlar bilan o'quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musavvirlarni ijodiy tomonlarini yaqqoliroq ko'rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o'qituvchi fondida ko'rsatilgan u yoki bu musavvirni asar reproduksiyasi bo'lmasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almashirilishi mumkin. Naturmortga kerakli bo'lgan buyumlar ham yo'q bo'lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasini hisobga olgan holda shakli shunga o'xshash buyumlar bilan o'zgartirish mumkin.

Maktab yoki kasb-hunar kollejda shaxsiy ish rejasini tuzishda o'qituvchi har bir sinf yoki kurslar uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bunday yillik ish rejasini yaxshisi tasvirli bajarish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirlaydi. Maktabda chorakni so'nggi darslarini suhbat yoki narsani o'ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisoblab bo'lmaydi. Agarda rejalashtirishda chorakni so'nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli

rasm ishlash belgilangan bo'lsa, bolalarga shu ishni ta'til vaqtida bayram bilan bog'lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo'lamiz.

Mavzularni – tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko'rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o'quv qo'yimalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni metodik yo'nalishlarini aks ettirish yengil bo'ladi.

Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o'quv materiallari chorak yoki semestr bo'yicha va alohida darslar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o'quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko'rgazmali tasvirlanadi.

Tasvirli — mavzuli reja dasturi o'ziga xos jadval sifatida o'quv chorakning soniga qarab to'rtta qatordan iborat, ularni har bir chorakdagi o'tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi. Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldiriladi.

#### 1- jadval

Chorak	t.r	Darslar	dars turlari	darsning mavzusi	darsning maqsadi	Qo'llanish materiali	soat jami
1 chorak	1	1-2	mavzu asosida rasm ishlash	«Ona yurt manzarasi»	O'zbekiston manzarasini tasvirlash, uning o'ziga xos qiyofasini tasvirlash.	qalam, akvarel guash	2 soat
	2	3-4	mavzu asosida rasm ishlash	«Turar joyning tabiat bilan uyg'unligi»	Qishloq manzarasini tasvirlash.	qalam, akvarel guash	2 soat

Demak, birinchi qator sarlavhasida chorak belgisi, tartib raqami, dars soni, dars turlarining nomi, darsning mavzusi, maqsadlari va vazifalari, berilgan mavzu qanday materiallarda bajarilishi va unga necha soat ajratilgani ko'rsatiladi.

Ushbu jadval to'rtta qatordan iborat bo'ladi, lekin kataklari har bir chorak bir xil emas albatta, o'quv chorak haftasiga bog'liqdir. Masalan, 1-chorak 1,09 boshlanadi 4,11 tugallanadi - 8-9 hafta



- 2-chorak 10,11 – 30,12 - 7-8 hafta
- 3- chorak 12,01 – 23,03 - 10-11 hafta
- 4- chorak 1,04 – 25,05 - 7-8 hafta

Jami: 34-35-36 hafta

Shunday qilib, maktabda darsning soni jihatidan eng katta va cho'zilgan chorak uchinchi chorakdir. Tasvirlangan kataklarda ham darslarning raqami va rangli belgilar orqali dars turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Vazifani bajarishda o'quv rejasini tuzish bilan bir vaqtda didaktik va metodik materiallar yig'ib boriladi. Bunga esa metodik va maxsus adabiyotlar, ulardan sitata shaklida ko'chirmalar, annotatsiyalar, bezakli materiallar, har xil metodik qurollar (chizmalar, jadvallar), xalq ijodiy namunalari kiradi.

Qanday shaklda mavzuli - tasvirli rejani bajarilishi talabalar bilan amaliy mashg'ulot o'tkazuvchi kafedra va uning o'qituvchilari hal qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi bilan birgalikda bir fikrga kelishilgandan so'ng talabalar tomonidan bajarilgan taxminiy varianti tasdiqlanadi va tamomila belgilagan qog'oz formatida bajariladi. Masalan, A.I. Inog'omov va boshqalar tomonidan 1-4 sinflar uchun tuzilgan dasturdan 4-sinfning 1 – chorakda berilgan mavzularini tasvirli rejasini quyida namuna sifatida tavsifiya qilinadi.

#### *IV sinf 1 - chorak .*

1-2 darslar. «Ona yurt manzarasi». O'zbekiston manzarasini tasvirlash, uning o'ziga xos qiyofasini tasvirlash.

3-4 darslar. «Turar joyning tabiat bilan uyg'unligi». Qishloq manzarasini tasvirlash.

5-6-7-8 darslar. «Sharq shaharlari qiyofasi». Qadimiy Sharq me'morlik obidalari shakllarini yasash (hajmli applikatsiya).

9-10 darslar. «Mehnatkash inson qiyofasi». O'zbek ayoli qiyofasi, latofatini (ishlab turgani, dam olish chog'larida, bolalar o'zlari hayol qilgan muhitda) tasvirlash.

11-12 darslar. «Haykaltaroshlikda mehnatkash inson qiyofasi». Ishchilar qurilishda mavzusida quruvchilar qiyofasini plastilindan yasash.

13-14 darslar. «Mehnatni sharaflash». Mehnatni tasvirlash - hosilni yig'ishtirish; dala, bog', polizdagi mehnat.

15-16-17 darslar. «Xalq bayramlari». Xalq bayramlari, sayllari, bozor, hasharni tasvirlash.

### 2.3. Dars konspekti va mashg'ulot ishlanmasini tuzish

Darsning mavzusini tanlash tartibi:

1. Talaba o'zi ishlab chiqqan tasvirli-mavzuli rejasi asosida mustaqil ravishda dars mavzusini har bir dars turi bo'yicha maktabda (naturaga qarab tasvirlash, naturaga qarab haykal ishlash, kompozitsiya faoliyati – rangtasvir kompozitsiyasi, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiyasi, borliq va san'atni idrok etish, hadiy qurish - yasash), kasb-hunar kollejda (qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san'at tarixi, haykaltaroshlik, naqqoshlik, miniatura va hokazolar) tanlab olishi mumkin. U amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi professor – o'qituvchi tomonidan tasdiqlanishi zarur.

2. Professor - o'qituvchi tomonidan talabalarga dars mavzulari taqsimlanadi va ularning dars konspekti ishlab chiqiladi. Mavzu tasdiqlangandan so'ng dars konspektlarini bajarish muddatlari belgilanadi va berilgan mavzu bo'yicha darsning bir qismi o'tkaziladi. Tasviriy san'atdan dars konspektlari psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik o'quv adabiyotlarni chuqur o'rganish asosida va shu bilan birga o'rta maktab va kasb-hunar kollejining tasviriy va amaliy san'at dasturlari doirasida va o'quv qo'llanmalari orqali bajariladi.

Dars konspektida quyidagilar bo'lishi shart:

- darsning turi;
- darsning mavzusi;
- darsning tipi;
- darsning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari;
- darsning tuzilishi (qurilishi);
- og'zaki takrorlash uchun savollar;
- o'quv materialini ketma-ketlik bayoni va uning hajmi;
- darsning tushuntirish va mustahkamlashga ajratilgan vaqti;
- ijodiy xarakterdagi mashqlarni sifati va bosqichlari;
- mustaqil ishlarni mazmuni va bajarish usullari;
- texnika vositasi va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanishi.

Konspekt matnini so'ngida darsga tayyorgarlik ko'rishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti va hajmi).

Dars konspekti illyustratsiyali bo'lishi mumkin. Unda sinf taxtasidan, sxemalardan, bosqichma-bosqich bajarilgan tasvirlardan, o'quv-buyumlar namunalariidan, o'quvchilarni ijodiy ishlaridan va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars konspektini yozishda iloji boricha qog'oz varag'ini o'ng tomonida ko'proq joy qoldirish maqsadga muvofiqdir. Chunki dars

muhokamasi vaqtida bildirilgan mulohazalar va takliflar bilan to'ldirishlar kiritish mumkin.

Dars konspekti o'quv daftariga tushunarli yozuv bilan yoziladi yoki yozuv mashinkasida bosiladi. Muqova va titul varaqasi kafedra tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha jihozlanadi.

Har bir talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha har bir darsni yuqori darajada o'gishi uchun dars rejasi va uning konspektini yozishi shart. Shuning uchun talabalarga yordam (eslatma) tariqasida darsning konspekt namunasini keltiramiz.

#### **1. Dars (mashg'ulot)ning turi:**

Masalan, a) naturaga qarab tasvirlash(1-7 sinflarda); b) kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda); d) borliqni idrok etish (1-4 sinflarda); e) badiiy qurishyasash (1-4 sinflarda); f) san'atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda).

#### **2. Darsning mavzusi:**

#### **3. Darsning maqsadi:**

Masalan, a) o'quvchilarga.....haqida (umumiy, to'liq, qisman) ma'lumot berish; b) berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish; d) o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalarni hosil qilish; e) yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish; f) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning estetik xislarini rivojlantirish; g) yosh avlodni kelgusida kasb tanlashga to'g'ri yo'llash va hokazo.

#### **4. Dars o'tishning metodlari va usullari.**

**Perspektiv metodlari:** a) og'zaki (bayon qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat); b) ko'rgazmali (illustratsiya, namoyon qilish); d) amaliy (tajribalar, mashqlar va h.k.).

**Mantiqiy (logik) metodlar:** a) induktiv – aniq faktlardan umumiylikka; b) deduktiv – umumiy tushunchalardan faktlarga; d) analitik – faktlar asosida mavzuni chuqur o'rganish va h.k.

#### **Gnostik (ilmiy bilish) metodlari:**

a) reproduktiv (gapirib berish, namunaga qarab mashq qilish, instruksiya bo'yicha laboratoriya ishlari); b) qisman izlanish (evristik metod: evristik suhbat, disput va h.k.); d) muammoli o'qitish va hokazo.

#### **Ta'limni boshqarish metodlari:**

a) o'qituvchi rahbarligidagi o'quv ishlari; b) o'quvchilarning mustaqil ishlari (kitob bilan ishlash, ijodiy ishlar, laboratoriya ishlari va h.k.).

### **O'qishga qiziqishlarini rag'batlantirish metodlari:**

a) bilishga doir o'yinlar; b) ta'limiy munozaralar; d) qiziqarli vaziyatlar yaratish, yangiliklarni bilishga qiziqtirish va h.k.

### **Og'zaki tekshirish metodlari:**

a) individual so'rash; b) frontal so'rash; d) og'zaki sinov.

Ma'lumki, o'qitishning har bir metodi o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyatida sodir bo'ladigan ko'pgina usullardan iborat bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan dars berish metodlari va usullaridan qaysi birini dars berish davomida (darsning qaysi bosqichida yoki vaziyatda) ishlatilishi lozim deb belgilanganligi haqida shu yerda yoki darsning bosqichlari yozilgan joyida aniq ko'rsatilishi kerak.

### **5. Darsning jihozlanishi:**

*O'qituvchi uchun:* a) ... naturasi yoki maketi;

b) .....bosqichli rasmlari.

*Ko'rish qatori:* slayda, rassom asarlarini reproduksiyalari.

*Adabiy qator:* yozuvchilar she'rlaridan parchalar.

*Musiqa qatori:* qo'shiqlar, kuylar.

*O'quvchilar uchun:* albom yoki format qog'ozi, qalam, o'chirg'ich, bo'yoqlar (akvarel, guash), suv idish, mo'yqalamlar, latta va hokazolar.

Sinf taxtasidan foydalanish: *o'ng tomonda* — tasvir chizilgan plakatlar; *o'rtasida* — slayda ko'rsatish uchun ekran; *chap tomonda* — material bayon qilishda bo'r yordamida tushuntirish uchun bo'sh qoldiriladi.

### **6. Darsning tuzilishi:**

1. Tashkiliy qism — 1-2 daqiqa.
2. O'tgan mavzuni so'rash — 7 - 10 daqiqa.
3. Yangi mavzuni bayoni — 13 - 15 daqiqa.
4. Mustaqil ishlar — 22 - 25 daqiqa.
5. Dars yakuni va uyga vazifa berish — 3 - 4 daqiqa.

### **7. Darsning borishi.**

1. *Tashkiliy qism — 1-2 daqiqa.*

Sinfga kirish, salomlashish, ma'lum intizomni vujudga keltirish, davomatni aniqlash va jurnalga belgilash.

2. *O'quvchilardan o'tgan mavzuni so'rash — 7- 10 daqiqa.*

Savol, avval, o'rtaga tashlanadi, keyin qo'lini ko'targan o'quv-

chilardan bittasini javob berishga sinf taxtasiga chiqariladi.

1 savol.....o'quvchi A. Siz javob beringchi.....

2 savol.....o'quvchi V. Siz aytinchchi.....

3 savol.....va hokazo.

3. *O'tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzuga bog'lash – 3 daqiqa.*

a) o'tgan mavzuni yakunlash;

b) o'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'lash;

d) yangi darsning mavzusi: « .....» doskaga yozib qo'yiladi va bu darsning maqsad va vazifalari bayon etiladi.

4. *Yangi mavzu materialini o'quvchilarga bayon qilish – 12-15 daqiqa.*

- Diqqat qiling.....ayingchi?.....

(1 - savol, 2 - savol, 3 - savol va hokazo.). ..... turlicha javob.

– To'g'ri? lekin.....

– Nima uchun?

– Ha, endi e'tibor bering.....materialni tushuntirish davomida yangi terminlar doskaga yozib qo'yiladi, vaqti-vaqti bilan pauza qilinadi.

– Barcha o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida muammoli vaziyat yaratiladi, ularning bilib olishlari zarur bo'lgan vazifa aytiladi.

– Qani kim aytib beradi? .....

– Turlicha javoblar.....

Savollarga javobni ma'lum maqsadga yo'naltirishga harakat qilinadi. Bu vazifani turlicha hal qilish mumkin. Ular orasida quyidagilar eng muhim ahamiyatga egadir. Tushuntirilayotgan materialni sarmazmun, yangiliklarga tayangan holda ifoda etish, amaliy hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning bilim va tajribalariga e'tiboran munozarali masalalarni obrazli hamda jonli ifodalash, ularni faol fikr yuritishga undaydigan, izlanishga majbur etadigan vaziyatlar yaratish va hokazo.

Shunday qilib, yangi material mazmunini oldindan, tayyorlangan konspekt tarzida ko'rgazmali qurollar bilan birgalikda bayon etiladi. Yangi mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ilg'or nazariyalarga, oldindan belgilangan usul va metodlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Yangi mavzu konspekti to'la yoki tezis tariqasida beriladi.

5. *O'quvchilarning amaliy mashg'uloti – 22 - 25 daqiqa.*

O'quvchilar ijodiy mustaqil ishlaydilar.

O'qituvchi mashg'ulot mobaynida oralab yurib o'quvchilarga individual yondashadi. Agarda yangi mavzuni to'liq tushunmagan

yoki e'tiborsiz tinglagan o'quvchilar bo'lsa, sávollar o'rtaga tashlanadi. O'quvchilarning javoblari qoniqarsiz bo'lsa, a'lochi o'quvchilar yordamga chaqiriladi. Shu bilan birgalikda yangi dars ham mustahkamlab boriladi.

Darsni yakunlashga qadar o'quvchilarning ishlaridan bir nech-tasi olib bir-biriga taqqoslanib, tahlil etiladi va baholanadi.

#### 8. Uyg'a vazifa berish — 3 - 4 daqiqa.

a) kelasi darsga, yangi darsga tegishli terminlarni ada-biyotlardan topib o'qiysiz

b) ..... mavzuda rasm chizasiz va hokazolar.

#### 9. Foydalanilgan adabiyotlar:

Masalan:

1. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1984. — 176-bet.

2. Darsliklar.....T.: nashriyot, yili, bet.

3. Ayrim nashrlar, ensiklopediya, maqola va hokazo.

Bugungi mustaqillikka erishgan vaqtda qadriyatlarimizni qayta tiklanishi borasida tasviriy san'at darslarida turli yo'l-yo'riqlar bilan xalqimiz merosining hunarmandchilik, amaliy bezak va milliy an'ana, afsona va rivoyatlardan foydalanishni amalga oshirish uchun o'ziga xos usulblardan qo'llanishi mumkin.

O'qitish metodikasi — bu nima? Ilmmi yoki san'atmi? O'qitish metodikasini nazariyasi—ilmidir, uning ma'lum mazmunlari va tavsiyalarini samaradorligi ilmiy asoslanib isbotlangan. O'qitishning o'zi esa o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir qilib o'ziga jalb qila olish — san'atdir. Nazariy va amaliy tomonlarini farqini bilib, metodi-kaga bir tomonlama qarashlar bo'lishi mumkin emas.

O'qitish san'ati, dars konspektidagi nazariy bilimlarni ta'lim amaliyotida ijodiy foydalanishni talab etadi. Shuning uchun dars konspektini tuzishda asosiy e'tiborni bayon qilish shakliga emas, balkim o'quv materialini mazmunini yoritilishiga qaratilishi lozimdir.

Tajribadan ma'lumki talabalar amaliy mashg'ulotlar, peda-gogik amaliyot natijasida o'zlari xilma-xil yangi va o'zgacha, qiziqarli, original ishlash turlarini yaratadilar.



**3-bob. O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR  
VA PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA  
TASVIRIY SAN'AT  
O'QITISH METODIKASIDAN  
AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**3.1. Mashg'ulot mavzularini tasvirli rejalashtirish**

Talabalarni nazariy ta'limini va amaliy ishlarini rejalashtirish bo'yicha asosiy hujjati bo'lib mavzuli-perspektiv reja va darsning ko'chirma rejasi hisoblanadi.

Mavzuli-perspektivali reja – o'qituvchi tomonidan o'quv yiliga yoki ta'lim davriga tuziladigan o'quv-metodik hujjat, uning tuzishiga asos bo'lib fanlar bo'yicha namunaviy dasturlar va mavzuli reja hisoblanadi. Perspektivali mavzuli rejaga darslar bo'yicha o'quv materialini to'g'ri taqsimlanishi va ularni jihozlanishi tavsiya qilinadi.

Perspektivali-mavzuli rejani uchta qismga bo'lish mumkin:

Ma'lumot qismi – mavzuning soni, uning nomi, dars turi, dars mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan soatlar soni.

Mashg'ulotlarni bajarish – darsdagi amaliy ishlar, o'quvchilarni mustaqil ishi, o'quv materialini takrorlash va mustahkamlash, fanlararo aloqalar, uy vazifalari:





Darslarning ta'minoti – o'quv quyilmalar, ko'rgazmali qurollar, ta'lim texnik vositalari.

Mavzuli-perspektiv rejasi – bu ko'p martali foydalaniladigan hujjat.

Chizmatasvir (qalamtasvir) va rangtasvir fanlari bo'yicha namunaviy dasturlarida o'quv vazifalari muayyan tizimli va ketma-ketlikda berilgan. Albatta, har bir vazifani yechimi yaxlit etyud yoki eskiz ko'rinishi bilan bog'liq. Birinchidan, kompozitsiya ishlanmasini hajmli, shakllar, rangdor, tusli qurilishi, naturaning materiallik sifatini yetkazish, tabiiy sharoit, yoritgich, buyumning fazoviy joylashuvi, rangtasvir vositalari yordamida naturaning xarakterli xususiyatlarini ifodalash, etudning yaxlitligi va bajarish mahoratlari – bularning hammasi realistik rangli tasvirlashda birlashtirilgan va rassomni ifodali tasvirlash ko'nikmasi hisoblanadi. Ikkinchidan, har bir vazifani o'zgacha hal qilmasdan keyingi etyud vazifasi bilan o'zaro bog'liqda olib borish zarur. O'quv ijodiy vazifalarni o'zaro bog'liqda olib borish natijasi bo'lg'usi rassom-o'qituvchilarni yetuk va kasbiy tayyorgarligini belgilaydi.

## Fan mavzular rejasini taxminiy tasvirli rejalashtirish namunasi










1 - jadval

seme str	O'tkazish vaqi	Mashg'ulotning mavzusi	Mashg'ulotning maqsadi	Ko'llaniladigan material	Tasvirning ko'rinishi	soat jami
1 seme str	Sent.okt.	Gipsdan yasalgan ornamentli vazaning qalam tasviri	Buyumning fakturasini tuzilish xarakterini va ornament takrorlanish naqshini tasvir orqali ko'rsatish	qalamtasvir Akvarel, guash		16 soat
			Davomi			
2 seme str		Naturmort	Naturmort haqida ma'lumot. Uni tuzish va tasvirlash. Soya-yorug'ini bajarish.	qalamda		
						



**Kasb-hunar kollejlarda chizmatasvir fanidan mashg'ulot mavzularini tasvirli rejalashtirish**

2 - jadval

	<b>M a v z u l a r</b>	<b>Jami</b>	<b>Ko'rgazmali material</b>
	2	3	4
	<b>1 - semestr</b>		
	Kirish. Chiziq va tasvir to'g'risida umumiy tushuncha. Chizmatasvirda turli shakl va chiziqlar	2+2	 
	Oddiy yoki sodda shakldagi ikki yoki uch geometrik jismlardan tuzilgan naturmort	2+8	 
	Geometrik naturmortni oraliq kesmadagi chiziqlar bilan bo'shliq ko'rsatilgan chizmasi	2+8	 
	Ikki yoki uch geometrik jismlarni gorizontaal chizig'idan past ko'rinishda qo'yilgan naturmort	3+13	 
	O'simlik guli tushirilgan gipsli naqshni uncha katta bo'lmagan relefdagi ko'rinishi	4+16	
	Gipsdan yasalgan vazani chizma tasviri	4+16	
	<b>Jami</b>	80	

### 3.2. Dars konspektini va mashg'ulot ishlanmasini tuzish

Dars konspekti har bir dars turiga bezakli - mavzuli reja asosida tuziladi va bir qator muhim vazifalarni nazarda tutadi, xususan:

– har bir talabani badiiy ustakorona (professional) va maxsus ilmiy-nazariy bilimlarini chuqurlashtirishi, o'quvchilarni ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatini modellashtirishda ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallash;

– pedagogika, psixologiya, metodika maxsus fanlardan olgan bilimlarini birgalikda foydalanishga o'rganish;

– dars mavzuyini mazmunini yoritib berish uchun material tanlay olishga o'rganish, dars tuzilish elementlarini mantiqiy va metodik jihatdan to'g'ri, bosqichma - bosqich uyushtirish va mazmunini bayon qilish;

– darsning o'quv vaqtini to'g'ri taqsimlash malakasini ta'lim jarayonida boshqarishni o'rganish;

– o'quv materiallarini bayon qilishda og'zaki nutqning ravon bo'lishiga erishishga o'rgatish va og'zaki nutq madaniyatini hosil qilish;

– ta'limda kerakli texnik vositalarni tanlay bilish va o'quv ko'rgazmali qurollarni tayyorlashni o'rganish;

– maktab yoki kasb-hunar kollej amaliyotiga tayyorgarlik ko'rib, pedagogik tajribalar ortirib borish.

**Ko'chirma (konspekt) rejasi** – bu o'quv metodik hujjat bo'lib, o'quv dasturi va mavzuli perspektiv rejasiga muvofiq har bir darsni o'tkazishdan oldin professor-o'qituvchi tomonidan tuzib chiqiladi.

**Mashg'ulot turi** – dars nimaga bag'ishlanganligini belgilaydi: qalamtasvir, rangtasvir yoki nazariy mashg'ulot.

**Mashg'ulot mavzusi** – dars jarayonidagi o'quv ishlarini mazmuni yoritiladi.

**Mashg'ulot maqsadi** – darsning tarbiyaviy va ta'limiy vazifalari shakllantiriladi.

**Mashg'ulot jihozi** – darsni o'tkazish uchun auditoriya yoki o'quv xonasining tayyorgarlik qismi.

**Mashg'ulotning rejasi va borishi** – ta'lim dasturida tavsiya etilgani bo'yicha darsning mazmuni izchillikda bayon etilishi yoki mantiqiy o'qitish natijasi bo'lib hisoblanadi. Darsni izchillikda o'tkazish uchun berilgan o'quv vaqtini quyidagicha taqsimlanadi:

**Tashkiliy qism** – 2-3 daqiqa.

**O'qituvchining kirish so'zi** – 8-10 daqiqa.

**Darsda o'quvchilarni mustaqil ishi** – 75 daqiqa.

**Uyga vazifa** – 3-5 daqiqa.

### **Darsni yakunlash (dars tahlili) – 2–3 daqiqa.**

**Darsning davomiyligi - 90 daqiqa.** Odatda amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun o'quv vaqtini 75 % foizi ajratiladi. Ayrim o'quv vazifalari uzoq vaqt davomida bajariladi, masalan, qalamtasvir dasturida berilgan mavzu: «gipsli erkak kallasini tasvirlash» 12 soatgacha ishlanadi. Rejadan so'ng o'qituvchi darsning borishini bayon qiladi u esa uchta qismdan iborat:

**Tashkiliy qism.** Yuqori intizom talabi, ish joylarini tayyorlash va mazmunini o'rganish tartibi.

**Kirish so'zi.** Tarixiy ma'lumotlar, yangi terminlar mohiyatini tushuntirish va tushunchalarni shakllantirish, o'quv quyilmasini konstruktiv va estetik xususiyatlarini yoritish, o'quvchilarni ishlash tartibi va ketma-ketligi, o'quv vazifasini bajarish usullari. Kirish so'zida yangi materialni o'rganishining mohiyati yoritiladi.

**Amaliy mustaqil ish.** Ish rejasi tezis kabi bayon etiladi, o'ziga xos xatolar va ularni bartaraf etish tavsiyanomalar yoziladi, ish jarayonini kuzatish, tartibi va ketma-ketligi haqida ma'lumot, amaliy mashg'ulot jarayonida tartib-intizomni saqlash borasida va boshqalar.

**Ko'chirma (konspekt) –** rejasida asosiy mashqqa o'tish oldidan bajariladigan xomaki rasmlar ishlashga ajratilgan vaqtni hamda uy vazifasining mazmunini ham belgilash mumkin. Shu bilan birgalikda qalamtasvirdan, ishlanayotgan ishga o'xshash yoki ayrim holda asosiy vazifa mashqidan foydalanib, uy vazifasi tavsiya etiladi. Kompozitsiya fanidan esa mashg'ulotlarda bajargan mashqlardan so'ng alohida uy vazifasi beriladi.

Barcha tasviriy san'at darslari muammoli xususiyatga ega mashg'ulotlar hisoblanadi. Mashg'ulotlarda buyumlarning shakllari va uni tasvirlash muammolari ko'riladi. O'quvchilarni shakllar xususiyatlarini tushunishga va to'g'ri ko'rishga o'rgatiladi.

Bu muammoning yechimi qiyinligini o'quvchilar ham o'qituvchilar ham sezishadi. Birinchidan, o'quvchilar naturani kuzatayotib eng muhim va zarur joylarini har doim ham sezavermaydi. Undan tashqari ular narsani va uning tasvirini turlicha qabul qilishadi. Shuning uchun ham o'z xatolarini tushunib ular o'z fikrlarini o'zgartira olmaydi va nuqsonlarini o'qituvchining yordamisiz bartaraf eta olmaydi.

Ikkinchidan, o'quvchilarni uch o'lchamli shaklni ikki o'lchamli qog'oz tekisligiga tasvirlashni o'rgatish. Bu holda tasvir bevosita perspektiva, soyalar nazariyasini qo'llash bilan bog'liq. Narsalarni perspektiv tasvirlash ko'nikmalarini egallash zarur.

Uchinchidan, o'quvchilar kompozitsiyada badiiy izlanish mazmunini tushunishiga o'rgatish, ijodiy fikrlash va obrazli tasavvurlashni tashkil etish, yangi buyum kompozitsiyasini tasvirlash va yaratishni bilish.

Bulaming barchasi o'qituvchiga ma'lumotni yetkazishda turli-tuman uslub va usullarini, dasturni bo'lim va mavzularini maqsadli va samarali o'rganish uchun darslarda ta'lim va tarbiya metodlari va shakllarini takomillashtirishni izlashga harakat qildiradi.

Har bir mashg'ulot tahlil bilan tugallanishi lozim. Ko'p vaqtli o'quv vazifasini bajarishda tahlil qilish uchun maxsus vaqt ajratiladi.

Tajribali o'qituvchilar o'quv vazifasining tuzilishini tahlil qilish asosida ketma-ketlikda bajarishni tavsiya etadi: tasvirni joylashuvi, tasvirni konstruktiv va chiziqli qurilishi, shakl va uning xususiyatlarini tasviri, shakllarni fazoviy joylashuvi, yorug'-soyalarni ko'rsatish, nuqsonlarni bartaraf etib rasmni umumlashtirish.

O'quvchilarning ishini tugallanishida eng muhim joyi, ularning baholanishi – guruh va fakultet miqyosidagi ko'rgazmalar tashkil etilishi, bu ham har bir o'quv semestrlari so'nggida o'tkaziladi. Albatta, bu ko'rgazmalarga dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda, badiiy to'garaklarda bajarilgan eng yaxshi ishlar qabul qilinadi.

## Chizmatasvir

**Mavzu: Chizmatasvir fani va uning maqsad va vazifalari.**

**Mazmuni: 1. Chizmatasvir – bo'lajak kasbiy o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda fanning ahamiyati. 2. Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari. 3. Chizmatasvir ishlash metodlari tarixi.**

Chizmatasvir<sup>1</sup> – barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi.

Chizmatasvir mashg'ulotlari ko'rib - kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi olimi Leonardo da Vinchi «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida, shunday degan: «Yoshlar, ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir».

<sup>1</sup> Qalantirasvir fani o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining standartlari, namunaviy o'quv rejalarida chizmatasvir deb yuritiladi.

Chizmatasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak kasbiy o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Chizmatasvir darslari nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir.

Badiiy ma'lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash o'quvchilarga amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Haqqoniy rasm chizish san'ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Rasm chizishni o'rganish o'quvchilarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurishni nazarda tutadi.

Tabiatga muhabbat o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan kishilarga xos bo'lmog'i kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining yetuk malakaga ega bo'lishida nafaqat amaliy bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'atining nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq.

Chizmatasvir mashg'ulotlari quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

1. Kompozitsiya asoslari. 2. Chiziqli konstruktiv tuzilish. 3. Buyumlarning nisbatlari. 4. Perspektiva qonunlari. 5. Harakat. 6. Tasviridagi yorug' va soyalarning qonuniyatlari. 7. Tasvirni metodik ketma-ketlikda to'g'ri bajarish.

Bu ko'nikma va malakalar o'quvchilarning o'rta maxsus kasbhunar yurtida bilim olish davomida o'quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Ushbu bilimlar pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.

### **Tasvirlashning asosiy qonun - qoidalari**

**Perspektiva qonuni.** Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan qat'i nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan) chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'rif-

lash mumkin: Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo'ysunadi.

Perspektiv qonunlarni mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyatlari shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida perspektiv qonuni haqqoniy tasvirlash «alif-bo»laridan bo'lgan «surat tekisligi», «buyum tekisligi», «ko'rish maydoni», «ko'rish nuqtasi», «ufq chizig'i» kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

**Surat tekisligi** deb tasvirlanayotgan naturmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu buyumning shakli ko'rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Buyum tekisligi** deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo'lishi mumkin.

**Ko'rish maydoni** bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishdir. Rassom tasvirlanayotgan obyektning qancha uzoqlashib borgan sari uning maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan obyektning hamma qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin obyektidan juda katta masofada turib ham, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan obyektga yaqin masofada turib ham, ushbu obyektidagi hamma qismlarni ko'z bilan ilg'ab olish mashkul. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko'paytirilganiga teng masofada turib tasvirleydilar. Masalan, inson qomatini to'laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5 – 5,5 metrlar masofada turishi kerak.

**Ufq chizig'i** deb, ko'z balandligida o'tadigan tekislikka aytiladi. Buni aniqlash uchun qog'ozni olib uni gorizontal holatda ko'zimiz to'g'risigacha ko'tarib ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko'rinishi mumkin: 1. Ufq chizig'idan yuqorida. 2. Ufq chiziqidan pastda. 3. Ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Ufq chizig'i har doim ko'zimiz nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi, pastga tushsak ufq chiziqi ham pastda kuzatiladi.

**Fazoviy perspektiva** deb buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo — tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zoning ta'sirida va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo bo'shlig'ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi obyektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz, qish) hamda atmosfera o'zgarishiga (quyoshli yoki bulutli) qarab ham o'zgaradi.

Fazoviy perspektivaning ushbu asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan tasvir yaqindagi buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa umumiy ko'rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo kengligida joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, xira tusda ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'ratish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq yengil oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlashi kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq ko'rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi. Fazoviy perspektivani yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniqroq chizgilar bilan, uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash mumkin.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazoviy perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun muhimdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalar

o'quvchilarning qanday vazifa bajarishidan qat'i nazar (portret, naturmort, manzara va hokazo) kuzatilishi mumkin.

Buyumlarni tasvirlashda yorug' va soyalar katta ahamiyatga ega naturaga qo'yilgan buyumlarga yorug'lik tik tushsa, ularning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda tushib bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo'lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat: a) yorug'lik; b) soya; d) yarim soya; e) refleks — aks yorug'lik; f) yaltiroqlik; g) shaxsiy soya.

**Yorug'lik deb** — predmet yuzasiga tik tushuvchi quyosh yoki sun'iy yoritgichlar ta'siridagi nurga aytiladi.

**Soya** — buyumlarning yoritilgan qismining teskari tomoniga (teskarisiga) yorug'lik nurlari tushmagan yerga aytiladi. Bunday soyalarni yana shaxsiy soya deb ham yuritiladi. Tasvirlar bajarilishda tutashuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi. Ushbu soyalar buyum tekisligiga (tol, pol, yer va hokazo) hamda bajarilayotgan buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumlarga qiyaroq (xiraroq) ravishda tushuvchi yorug'lik nuri ularda yarim soyalarni tashkil etadi. Yarim soyalar, asosan yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismlarga joylashadi. Shuning uchun buyumlardagi har qanday soyalar ham bir xil tusda bo'lavermaydi.

Faqatgina yorug', soya va yarim soyalar vositasida buyumlarining hajmlarini to'g'ri bajarish mumkin. Buyumlarga urilish natijasida tushuvchi yorug'liklar aks yorug'likni **refleks** hosil qiladi. Aks yorug'liklar predmetlarning bir-biridan qanday masofada joylashgan yeriga qarab kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin, lekin hech qachon aks yorug'lik buyumlarga tik yotuvchi yorug'lik nuriga nisbatan kuchli bo'lmaydi.


Buyumda yorug'lik tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik (shu'la)** hosil bo'ladi. Yaltiroqlik shisha, chinni, temir, sopol va boshqa yorug'likni qaytarish xususiyati kuchli bo'lgan buyumlarda kuza-tiladi.

O'quv chizmatasvirda yorug' va soyalar qalamda yengil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziq uchlari tasvirlanayotgan buyunning xarakteriga va yorug'lik tushish yo'nalishi bo'yicha aniq bo'lishi kerak. Bunday usulda bajarilgan tushlash buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatib beradi. Buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuroq, bir-



biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi lozim. Qirrali buyumlarda shtrixlar yorug' va soya uchrashgan (yaqinlashgan) qismida to'qroq bo'ladi.

Naturaga qo'yilgan oldingi buyumlar yaqqol chiziqlar bilan bajarilsa, ikkinchi va uchinchi qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroq joylashganligi hisobiga umumiy tarzda bajariladi. Bu o'z navbatida tasvirlanayotgan naturani haqqoniy (fazoviy perspektiva qoidasiga asosan) bajarilishda muhimdir.



Yorug'-soya qonuni:

1,3-yorug'; 2-shu'la; 4-yarim soya; 5-shaxsiy soya; 6-refleks; 7-tushuvchi soya.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, oddiy qalam bilan buyumni hajmi asosida tushirish, tasvirlanayotgan buyumlarni hajmdor bajarilishining omilidir. Pala-partish duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishda qiyinchilik tug'diradi.


Buyumlarning hajmlarini bajarishda, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosish va chiziqlar orasidagi masofaning teng bo'lishiga e'tibor berib tasvirlash, chizilayotgan buyumni to'g'ri bajarilishida katta ahamiyatga ega. Aylana (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlarni bajarishda ellips shaklida yuritiladi, buyumning ekvatoriga yaqinlashganda to'qroq tusda bo'ladi.

**Konstruktiv qurilish.** Tasvirlash uchun buyum qanday sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'i nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. **Konstruktiv** so'zi – tuzilishi (qurilish) ma'nosini anglatib rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chiziqli konstruktiv tuzilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Konstruktiv qurilish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi.


Quyidagi antik davrga mansub gipsdan ishlangan ko'za va me'morlik bo'lagida ushbu qonunni amalda ko'rishingiz mumkin.


Buyumning konstruktiv tuzilishini uning asosiy qismlaridan hamda yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi (ko'za, konus, piramida va hokazo). Chizikli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalarga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Yuqorida ko'rsatilgan rasmdagi gips ko'zaning hajmini to'g'ri amalga oshirish jarayonida ko'za asosiy, ekvatori, bo'g'zi va yuqori qismi aylanalarining uning buyum tekisligidagi holatiga, asosan perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chizikli konstruktiv qurish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan, murakkab tuzilishga ega bo'laklarni yengil birlashtirib yaxlit bir butunlikni tashkil etishdan iboratdir.

Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishdan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa **buyumlarning nisbati** deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari o'zaro katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Haqqoniy tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, ko'zaning balandligini eniga nisbatan kataligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda ko'zaning kichik tomoni — enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab ko'za balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan naturmort yoki boshqa o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.



Ko'zaning konstruktiv tasviri.





Buyumlarning nisbatini topish va qog'ozga to'g'ri joylashtirish.

**Hajmlar.** Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindir va boshqalar) ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan mashqlarni to'g'ri bajarish kontur<sup>1</sup> chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chiziqning buyum shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyumning konturlari to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmlarini bajarish to'g'ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi yoki uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajmlilik ellips, aylana shakllar orqali amalga oshiriladi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash, uning qanday shaklga ega ekanligiga va uni to'g'ri tushirish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatolikka yo'l qo'yadilar.

Kubning hajmini yorug' soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu esa mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda esa qirrali buyumlar yuzalarining bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirrasini yorug' qismidagi yuzaga yaqinroq yerida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

<sup>1</sup> Kontur – (Fransuzcha KONTOUR) buyum shaklini aks etuvchi chiziq deb yuritiladi.



Buyumlarning konturda hajmli tasvirlash.

Dumaloq shaklli buyumlarni hajmlarini ellips, aylana chiziqlar orqali bajariladi. Tasvirlashda dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroqdir. Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi sharsimon buyumlarni tasvirlashda ham uning chetlari quyuc kontur chiziq bilan amalga oshirilmaydi. Faqatgina uning turgan holatiga qarab yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

### *Chizmatasvir ishlash metodlari tarixidan*

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Asarlar aksariyati ovchilik bilan shuquullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va qorlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari ham aks eta boshlagan. **Zaravutkamar** (Surxondaryo) g'oridan topilgan jahon e'tiboriga molik ushbu tasvirda odamlarning yovvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborishi sahnasi tasvirlangan.



Zaraut-soy g'oridan topilgan devoriy sur'at.

Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik naturaga nisbatan bo'lgan kuzatuvchanlik holatlari kishini lol qoldiradi. Ushbu tasvir qadimgi tosh asri (mezolit)ga tegishlidir.

1957-yili Xo'jakentda (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazovordir. Uning o'lchami buguning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib 1,9 metrni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yovvoyi buqa rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shaklida bo'lib, toshning bo'rtiqligi (relefi) hisobga olinib ishlangan. Bu ikki tasvir so'nggi paleolit davriga tegishlidir.

Eramizdan avvalgi III-II asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan suratlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, yer, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.



Piktografik tasvirlar.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurg'izib chiqqanlar, keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar, shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy)... so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga taqlid qilish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlanqich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish uyg'ona bordi.

Eng avvalo, sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu alpozda tasvirlar ishlashning dastlabki metodlari ham yuzaga keldi. Endi hunarmand o'z shogirdining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unga yo'l-yo'riqlar ko'rsatardi, chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom ettishida muhim o'rin egallagan.


Shunday qilib tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin ushbu metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlandi.

Tasviriy san'atga o'rgatish metodlari to'g'risida gap borganda avvalo, qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasviray olishi, katta maydonning chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chiza bilishi shart bo'lgan. Tasviriy san'at metodlarini maktablarda o'rgatilishini biz qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi iyeroglifik xususiyatga ega bo'lganligidandir. Chunki shu yo'sinda biror bir ma'noni anglatishini faqat tasvirlar orqali amalga oshirishni talab etardi.

Yoshlarni maktabda o'qitish tizimi juda qattiq qo'llik bilan hattoki majburlash darajasida olib borilardi. Belgilangan maktab qonuniga amal qilinmagan o'quvchi jazolanardi. Qadimgi manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalariga bo'ysunmagan shogird gavron bilan savalanib, so'ngra uzoq vaqt qoronqu zulmatda saqlangan ekan. O'sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi: «Kundalik o'qishda faol va atrofda qilarga muloyim bo'l. Hech qachon dangasa bo'lma, yo'qsa kaltaklanasan!». Maktablarda rasm chizishga o'rgatish dastlabki qadimgi Misrda paydo bo'ldi. O'qitish rassompedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilardi. Shuni ta'kidlash lozimki, misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish, naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqea va hodisalarni kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalarda olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Parassiy, Evpomp, Pamfil, Apelles va boshqa rassomlar o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmolik hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan, eramizdan avvalgi 432-yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir - biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida «Dorifor» ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganini ko'ramiz.



Qadimgi misrliklarning nisbat kanoni.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib qadimgi Yunonda Sikion, Efess, Fivan kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga keldi. Shulardan eng ko'zga ko'ringani Sikion maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga, balki umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi hamda u yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratdi.

Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rganganlar. Shuning uchun Sikion maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlariga kiritilishini yo'lga qo'ygan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtayi nazardan qarashni birinchilardan bo'lib oldinga surdi. Tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvirga yuksak baho berarkan, «Qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asosli bo'lishi kerak», deb hisoblardi.

Ko'rib turibmizki, Pamfil tasviriy san'atni, xususan qalamtasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasini ishlab chiqqan. Uning metodikasi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to'liq o'qish davri o'n ikki yil davom etgan.

Qadimgi Yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan lazzatlanishni o'rgatar edilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinni, Yunon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarida fan sifatida haqqoniy tasvirni ifodalay bilishlari ular tarbiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim davri san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda tasviriy san'at sohasida ulkan muvofaqiyatlarga erishdilar. O'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalari yig'ib, keng ommaga namoyish qilishni odat qilganlar. Ayniqsa, bu hol Sezar hukmronligi davrida ko'proq oshirilgan, lekin, yunonlik san'atkorlardan farqli o'laroq Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasi rassom-o'qituvchisi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edi. Asosan, o'qitish tizimida Yunon rassomlari yaratgan namunalarga esa rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtayi nazardan nusxa ko'chirish, yunon rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o'qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechish oxir-oqibatda tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.



O'rta asrlarga kelib, realistik tasviriy san'at batamom inqirozga uchradi. Chunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalarini va na tasvirlashda Yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy prinsiplarni to'liq bilmas edi. Ruhoniylar buyuk Yunon rassom-pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan o'qitishning nazariy asoslarini yo'q qildilar. Uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan rassom-nazariyotchisi bu haqda shunday yozadi: «Imperator Konstantin va Silvestr papasi davrida Xristianlik dini tarkib topdi. Tasviriy san'at misli ko'rilmagan darajada ta'qib qilindi. Buyuk san'at asarlari – kartinalar, ma'budalar va insonning eng buyuk tuyg'usini shakllantiruvchi rassomlar san'atini o'qitish borasida to'plangan chizma, qonun hamda yozuvlar yo'q qilindi».

Antik nomi bilan yuritilgan ushbu davr san'atning vayron qilinishida turk istilochilari ham o'z «hissalarini» qo'shdilar. Turk-lar tomonidan Yunonistonning bosib olinishi tasviriy san'atning batamom rivojlanishdan to'xtalishiga olib keladi. Tasviriy san'at, xususan, rangtasvir san'ati bilan shug'ullangan Stendal o'rta asr davrini shunday izohlaydi: «Bosqinchilar qadimgi olimlarning qo'lyozmalarini yoqib kul qildilar, buyuk san'atkorlar tomonidan tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari yo'q qilindi. IX, X, XI asrlar, qora zulmat asrlari boshlandi».

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslarini umumiy ta'lim fani sifatida o'qitish olib tashlandi. Oqibatda o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'ladi, keyinchalik bu murakkab va mas'uliyatli vazifalar uyg'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan bajarildi.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning rivojlanishida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha metodlarni ishlab chiqa boshladilar. Salkam ming yillik turg'unlikdan so'ng, ilmiy bilimlar va san'atni rivojlantirish muammolariga bo'lgan qiziqish yana qaror topdi.

Tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo'yicha Chennino Chennini, Alberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shuqullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaraydilar.

Rasm chizishga nisbatan ko'p bo'lmagan 4-6 o'quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular usta rassomlar ustaxonasida tahsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitstiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borilardi. Usta rassom qanday qilib qalamchizgi

bajarish, keyin uni materialda ishlash hamda karton (xomaki rasm) tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'rgatar edi.

Qalamtasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. Shuning uchun ham Uyg'onish davri buyuk rassomlari rasm chizish metodlariga katta e'tibor berganlar.

Chennino Chennini «Rangtasvir qonuniyatlari» nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta e'tibor berib, uning zaminida narsaning o'ziga qarab tasvirlash mashqlari yetardi deb yozgan edi. Uning ta'kidlashicha yuksak mahoratga ega bo'lish uchun shogird har kuni bir necha soat rasm chizishi kerak.

Florensiyalik me'mor — Leon Batista Alberti ham qalamtasvir va uni o'qitish metodlariga katta e'tibor beradi. Xususan, uning «Rangtasvir to'g'risida uch kitob» nomli mashxur asarlar to'plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni o'rganishdan zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500-yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlari, xulosalari, hozirgi zamon akademik rasm chizish metodlariga to'la-to'kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o'z xissasini qo'shdi. Uning «Rangtasvir haqidagi kitob»ida odamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, haykaltaroshlik, chiziqli va fazoviy perspektivasi haqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rish mumkin.

Alberti kabi Leonardo da Vinchi ham tasviriy san'atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur qismi ekanligini ta'kidlar edi. Undan tashqari Leonardo da Vinchi inson a'zolari tuzilishini anatom kabi yuksak darajada o'qib o'rgangan. Insonning har bir mushak to'qimalarini o'rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uyg'onish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanganlardan biri nemis rassomi Albrect Dyurer va Shonlardir. Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko'plab tajriba sinovlar o'tkazdilar. Rassom olimlarning diqqatiga sazovor ishlardan yana biri inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish metodini ishlab chiqqanligidir.

Uyg'onish davri rassomlari jahon tasviriy san'atning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tasviriy san'at bo'yicha ishlab chiqqan perspektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli ko'rilmagan darajada yordam berdi. Agar o'rta asrlarda

tasvirlash metodikasi buyumlar shakli shamoyilining o'xshashligini e'tiborga olgan holda bajarilgan bo'lsa, endi bu davr qalamtasviri ilmiy asoslangan, anatomiya qonunlarini chukur o'rganish, perspektiva qoidalariga to'la-to'kis hisobga olib aks ettirgan holda tasvirlash metodlari rivojlangan davr bo'ldi. Yuqorida ta'kidlangani-dek Uyg'onish davri rassomlari rasm chizish metodikasiga katta hissa qo'shdilar va qalamtasvirni fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular o'qitishning didaktik negizlariga kam e'tibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII asr tasviriy san'atni o'qitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida to'la-to'kis, uning akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirning pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi «Qalamtasvir akademiyasida» ishlab chiqildi. Aka-uka Karrachilir tomonidan tashkil etilgan Boloniyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda saboq berganlar. Dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalari bilan tanishgan, so'ngra gips namunalarini tasvirlangan, shundan keyin inson qiyofasini o'ziga qarab rasmini solgan. Bu mashg'ulotlarda u insonning anatomik tuzilishlarini ham chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Boloniya akademiyasida o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul va namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib, 1648-yili Parijda qalamtasvir va haykaltaroshlik bo'yicha qirollik akademiyasi, 1660-yili Rimda badiiy akademiya, 1696-yili Berlinda, 1753-yili Madridda San-Fernando, 1757-yili Sankt-Peterburg akademiyasi, 1768-yili London badiiy aka-demiyasi tashkil etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari ham mavjud edi. O'quv adabiyotlari ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyandasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi hamda shogirdlarning mehribon ustози bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va so'zlashni mukammal bilgan. Antik davr san'atini chuqur, o'z shogirdlarida o'sha davrda yaratilgan haykallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ushbu namunalarni aks

ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga da'vat etgan.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya badiiy maktablarining rivojlangan markaziga aylandi. Fransuz akademiyasi badiiy ta'lim tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib kirdi. Ayniqsa u yerda akademik qalamtasvir ishlash borasida talaygina metodik yangiliklar yaratilgani ma'lum.

Qalamtasvir va uning o'qitilish metodlarini rivojlantirishga mashxur Fransuz rangtasvir ustasi Lui David ham katta xissa qo'shdi. Tasvir bajarishda, — deb ta'kidlar edi, u har bir bo'lak mukammal, aniq ishlanish, shu bilan bir qatorda ushbu qism yaxlit bir butunlikni tashkil etish lozim. Inson qomatini tasvirlashda avvalambor, uning ichki tuzilishini skeletini, chuqur o'rganib, tashki qiyofasini chizishga o'rgatar edi.

Qalamtasvir o'qitishi metodlarini rivojlantirishga aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyuilar ham katta hissa qo'shdilar. 1835-yil ular Parijda yosh rassom va hunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'at bo'yicha saboq berdilar. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargohlaridan farqli o'larok eng murakkab bo'lgan inson qomatini tasvirlashni mukammal o'rganib bo'lgandan keyin gips naqsh namunalarini chizishga o'tilgan.

Aka-uka Dyupyuilarning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi professor o'zining xususiy maktabini targ'ibot etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni «Eskirib, bir yerda qotib qolgan» deb hisoblab, ko'p hollarda o'zlari yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim berardilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar taklif etilib, ularni na kurslarga va na guruhlariga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagicha tarzda edi: katta xonaning bir necha joyida natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishga ega bo'lmagan holda tahsil olar edilar. Dars davomida o'quvchilarga erkinlik berilib, ular xohlagan naturaga qarab rasm chizar edilar. Ko'p hollarda u yoki bu vazifani bajarish uchun

aniq maqsad qo'yilmasdi. Shuni ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida ham aniq yo'nalishlarga ega bo'lgan o'quv dargohlari mavjud bo'lgan. Jumladan, venger rassomi Shimon Xollosi (1857-1919 y.y) va yugoslav pedagog-rassomi Anton Ashbelar (1862-1905 y.y) maktabi diqqatga sazavordir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan metodika va o'ziga xos ravishda tuzilgan dasturlar asosida o'qitish tizimi ularni butun jahonga mashhur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar yetishib chiqqanlar.

XIX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'nalishi jihatidan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Neopressionizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurrealizm va turli tarmoqli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish metodikasi, ayniqsa, qalamtasvirning rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. San'atshunoslik akademik tarzda o'qitish tizimiga qarshi chikib bunday shaklda ta'lim tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi deb hisoblar edilar. Tarixdan ma'lumki o'sha davrda namoyish etilgan ko'rgazmalardagi badiiy asarlarning umumiy madaniyat saviyasi u yoqda tursin, ularda tasvirlashning oddiy qonun-qoidalariga ham e'tibor berilmaganligini ko'ramiz. XX asrning boshlariga kelib G'arbiy Evropa va Amerika davlatlarining badiiy maktablari to'la inqirozga uchradi. Qalamtasvir ishlash uslublari ham keskin o'zgardi. Tasvirlanadigan namuna qiyofasini noizchil o'rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini yengil-yelpi egallash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirilar ishlash o'rni yuksak qoralamalar bilan almashdi. Ba'zi rassom-pedagoglar esa o'z o'quvchilariga buyumlar shakllarini xohlagancha buzib tasvirlashga ruxsat etdilar.

Bu hol o'qitish tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Akademiyalarga antik davrga mansub gips haykal namunalari yo'q qilindi, iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan akademik ishlar barbod etildi. Natijada akademik rasm chizish mustaqil o'quv fani sifatida o'zining qadrini yo'qotdi. Mashg'ulotlar o'zboshimchalik tarzida o'tkazildi. Tasvirlash uchun buyum va narsalarni (quyilmalarni) o'quvchilar pedagogsiz o'zlari xohlagan tarzda tashkil etardilar. Vazifalar esa aniq maqsadga qaratilmasdan yengil-yelpi bajarilar edi. Bu esa o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash imkonini bermas edi. 1939-yildan boshlab sobiq ittifoqning ko'pgina yirik shaharlarining oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash bo'limlari tashkil etildi. 1942-yildan boshlab esa ushbu bo'limlar badiiy grafika fakultetlariga aylantirildi. Ushbu o'quv

dargohlarida tasviriy san'at mashg'ulotlari, xususan, qalamtasvir — akademik tarzda narsa va buyumlarni haqqoniy qilib o'xshatib tasvirlash yo'lga qo'yilgani bilan e'tibordir. Buning natijasida yoshlarni turli xil formalistik oqimlarga kirib ketmasliklariga imkoniyat paydo bo'ldi. 1947-yilda esa sobiq ittifoq badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning o'sha yili qabul qilingan qarorlariga esa 1947-48 o'quv yilidan boshlab barcha badiiy — oliy o'quv dargohlari birinchi kurslarda gipsdan ishlangan antik davr bosh namunalari va odam portreti, ikkinchi kurslarda esa inson qomati va gips tors namunalari, uchinchi kurslarda inson qomatining turli murakkab odamlarini tasvirlash, to'rtinchi beshinchi kurslarda esa 2-3 libossiz gavdaning qalamtasvirini uzoq muddatda akademik tasvirlash vazifalari belgilandi.



Gipsli antik davr bosh namunasi.



Bola portreti.



Inson qomati.



Gipsli tors namunasi.



Inson qomatini libossiz akademik tasvirlash.

Shundan so'ng, Tallinn, Kiyev, Tibilisi shaharlarida badiiy institut tashkil etildi. 1955-yili Nizomiy nomidagi TDPI qoshida ham Badiiy – grafika fakulteti tashkil etilib, turli yillarda iqtidorli rassom-pedagoglar – O'zbekiston xalq rassomlari M. Nabiyeu, N. Kuziboyev, akademiklar R. Choriyeu, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari A. Boymatov, M. Saidov, dotsentlar K. Eminov, Yu. Elizarov, T. Oganosov, N. Ten, H. Abduraxmonov va ko'plab yirik mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qaysi davrda bo'lishidan qat'i nazar tasviriy san'atning rivojlangan eng yirik cho'qqisi, uni ilmiy asoslangan, mukammal ishlab chiqilgan metodlarida hamda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatining uyg'unlashgan davrida o'z aksini topgan.

Qalamtasvirga oid nazariy bilimlar nixoyatda zarur. Qalamtasvir chizish qonun-qoidalar, undagi iboralar, turli ashyolar bilan ishlash texnologiyasi, inson va hayvonlarning plastik anatomiyasi, yorug' va soyalar, ularning buyum va narsalardagi ko'rinishlari: daraxt va shoh-shabalarning tuzilish xususiyatlari kabilarni o'qituvchi mutaxassis o'quvchiga metodik bosqichlardan foydalangan holda to'g'ri tasvirlashni o'rgatishi va ilmiy jihatdan atroflicha tushuntira olishi kerak.

Keyingi vaqtda tasviriy va amaliy san'atni rivojlantirishga hukumatimiz katta e'tibor bermoqda. Unga esa qalamtasvir mashg'ulotlari yuksak darajada olib borilgandagina erishish mumkin.

Buyuk Mikelanjelo Buonarroti aytganidek: "Qalamtasvir — boshqacha qilib aytganda, chizgilar san'ati, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikning eng yuqori nuqtasi, qalamtasvir barcha fanlarning ildizi va manbayidir". Ushbu so'zlar hozir ham qimmatini yo'qotmagan va o'z isbotini topmoqda.

### Adabiyotlar

1. Azimova B. Naturmort tuzish va tasvirlash metodikasi. O'qituvchi, T.: 1984.
2. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. G'.G'ulom nashriyoti. T.: 2004.
3. Boymetov B. Portret qalamtasviri. Toshkent. 2001.
8. Tojiyev B. Qalamtasvir asoslarini o'rganish. Toshkent, 1994.
9. Ten N. Gips modellarining rasmi. T.: O'qituvchi, 1994.

### Mustahkamlash savollari

1. Chizmatasvir fanining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari qanday?
3. Tasvirlash qobiliyatlarini rivojlanish tarixi qanday bo'lgan?
4. Uyg'onish davri tasviriy san'atini qo'shgan hissalarini nimadan iborat?

### Rangtasvir

**Mavzu:** «Rangtasvir» tushunchasi. Haqqoniy rangtasvirning vazifalari. Rangtasvirda qalamtasvirning ahamiyati. Tabiat va rangtasvirdagi ranglar. Xususiy ranglar.

**Mazmuni:** 1. Tasviriy san'atning eng muhim qismi bo'lgan rangtasvir haqida umumiy tushunchalar. 2. Chizmatasvir rangtasvirning asosi va rangli tasvirlar ishlashga tayyorlash. 3. Rangtasvir ishlashning dastlabki nazariy hamda amaliy tomonlari. 4. O'quv mashq ishlarni metod va usullarining nazariy qismi. 5. Ranglarni ishlatish texnologiyasi. 6. Nazariy asosda amaliyotni samarali bajarishga o'rgatish. 7. Ranglarning o'ziga xos xususiyatlari.



Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardan oq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda quvvatli ekanligi ma'lum, bo'lib haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatdan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek, axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi, ya'ni qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'kdigi, ya'ni och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha, qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.



Ranglar spektri.


Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin, chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yoqida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashrutotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi.

O'quvchilar rangshunoslik nazariyasini puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar I. Nyuton, V. Lomonosov, G. Gelmgol'slar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I. Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan.

Buning uchun I. Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib, uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati — rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar — olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.



Iliq va sovuq ranglar.

Ranglar to'yinganligi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havorang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq'rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi, chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havoranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashdirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havorang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel rangtasvirining eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni va biriktiruvchi) modda sifatida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adirbudir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar yetarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirini bo'yash jarayonida umumiydan xususiyga, yoki aksincha, xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin, chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa, naturmortdagi narsalarning ochto'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun naturmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin naturmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yoqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natur-



Grizaylda bajarilgan naturmort.

mortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham naturmort ishlash ancha oson bo'ladi.



Naturmort kompozitsiyasi.

Naturmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda naturmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir, chunki xona ichiga qo'yilgan naturmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tu-

shayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorur qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.



Ranglar aralashmasi.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holda bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchanning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin, ya'ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak, karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havorang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigarrang), jigarrang mars (och), kuydirilgan umbra (jigarrang), sepiya (chiroyli to'q jigarrang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo, yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havorang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizila-

yotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganishi va bilishi kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash moybo'yoq) naturmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlar texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.



Naturmort (akv).



Qush tulum (akv).



Manzara (akv).





Inson qomatining etudi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi ham shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.

### Adabiyotlar

1. Г.И. Беда. Живопис. М.: Просвещение. 1986.
2. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. T.: Bilim. 2005.
3. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston. 2006.
4. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. Toshkent. 2005.

### Mustahkamlash savollari

1. «Spektr» nima?
2. Rangning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Haqqoniy rangtasvirning vazifalari nimalardan iborat?
4. Tabiat va rangtasvirdagi ranglar qanday jihatlari bilan farqlanib turadi.
5. Axromatik va xromatik ranglar deganda nimalarni tushunasiz?
6. Asosiy va qo'shimcha ranglar to'g'risida nimalarni bilasiz?

7. Bo'yoqlarning turlari, ranglarning xususiyatlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz ?

8. Rangtasvirning yaxlitligi qanday vositalar yordamida ta'minlanadi?

9. «Kolorit» so'zi nimani ifoda etadi?

10. Shu'la va «refleks» ning farqi nimada?

### **Tayanch tushunchalar**

Rangtasvir — rangli tasvirlar ishlashda texnologiyasi foydalaniladigan jihozlar, bo'yoqlar va boshqalar, shuningdek, tasvir ishlashni yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

Rang nisbatlari — rangning yorqinlik darajasi bo'yicha farqlari, o'zaro ajralib turish xususiyatlarini aniqlash.

Grizayl — fransuzcha so'z bo'lib kulrang degan ma'noni anglatadi, bir rangning har xil (och-to'q) turlari yordamida ishlanadigan tasvir.

Tus — yorug'lik miqdori, rang tusi kabi ma'nolarni anglatadi, badiiy asarda ranglar birikmasining umumiy ko'rinishi.

### **San'at tarixi**

**MAVZU:** San'at tarixiga muqaddima. Tasviriy san'atning tur va janrlari. San'atning tarbiyaviy ahamiyati. Tasvir va ifoda vositalari.

**Mazmuni:** 1. San'atning kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati.  
2. Tasviriy san'atning tur va janrlari haqida.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushuncha-

larini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va magʻlubiyatlari ularning asarlarida oʻz ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud boʻlgan ana shunday sanʼat hayot goʻzalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga daʼvat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar boʻlib qolmay, balki oʻzida inson aql-zakovati, hayot toʻgʻrisidagi fikr-oʻylarini aks ettiruvchi koʻzgu hamdir. Jahon sanʼati tarixini oʻrgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, oʻtmish odamlarning his-tuygʻu, hayotiy tajribalarini oʻrganish gʻoyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu soʻzsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy sanʼat turlariga — rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy sanʼatning eng muhim turlaridan boʻlib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy sanʼat asarlarida ifodalangan maqsad va mazmuni ochib berishda rang muhim oʻrin egallaydi.

**Rangtasvir** asarlari xarakteriga koʻra monumental, dekorativ, moʻjaz, dastgohli turlarga boʻlinadi.



Gʻ. Abdurahmonov, «Sijjakda kuz».

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shifrlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashingtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, ramkaga tortilgan mato xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert)larga o'rnatilib ishlanadi.

**Grafika** — lotincha "grafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hokazolar kiradi.



Broshar, «Ayol boshi».

**Haykaltaroshlik** - tasviriy san'at turalaridan biri. U lotincha "skulpo" so'zidan olinib, qattiq materiallarga "qirgish, kesish, o'yish, taroshlash" orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

### Tasviriy san'atning janrlari.

**Portret** - rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.



A. Raxmatullayev, L. Ryabsev.  
Mirzo Ulug'bek haykali. Toshkent.

**Avtoportret** – portret janrining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, musavvir o‘zining tashqi qiyofasini o‘zi tasvirlaydi.

**Manzara** – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko‘rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog‘u-



N.Oripova. Avtoportret.

toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo‘lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O‘. Tansiqboyevning “O‘zbekistonda mart”, “Jonajon o‘lka”, “Mening qo‘shig‘im”, N. Kashinaning “Tog‘da bahor”, Z. Inog‘omovning “Arpa o‘rimi”, “Choyga”, R. Temurovning “Bibixonimda bahor”, “Ulug‘bek madrasasi” asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.



G‘. Abdurahmonov. Manzara.

**Naturmort** – fransuzcha soʻz boʻlib, “jonsiz tabiat” degan maʼnoni anglatadi. Bu janrda musavvir, asosan, insonni oʻrab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qoʻllaniladigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U oʻz asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda roʻy berayotganligini ham koʻrsata oladi. Taniqli ijodkor musavvirlardan R. Ahmedov, L. Salimjonova, F. Abdurahmonov va boshqalar naturmort janrida barakali ijod qilmoqdalar.



R.Xalilov. Naturmort (akv).

**Tarixiy janrda** ishlangan suratlar orqali biz uzoq oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning koʻrinishlaridan biri jang (batal) manzaralaridir.

**Batal janr** – “batal” fransuzcha soʻz boʻlib, “jang”, “urush” maʼnosini bildiradi. U jang manzaralarini oʻzida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy oʻrinni egallaydi. Batalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi, jasorati hamda oʻz ona Vatanga boʻlgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B. Grekov, G.K. Saviskiy, A.A. Deyneka, V.V. Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M. Nabiyevning “Spitamen qoʻzgʻoloni”, musavvir R. Rizamammedovning “Muqanna qoʻzgʻoloni”, musavvir T. Sodiqovning “Toʻmarisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol boʻla oladi.

**Animalistik janr** oʻzgacha tasviry sanʼat turidir. U lotincha “anima”, “hayvonot olami” degan maʼnoni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zoʻr qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega boʻlgan. Oʻsha davrda ular gʻorlarining devorlariga kiyik, qoʻtos, mamontlarning suratlarini chizganlar.



Mamont tasviri.

Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar.

Kexsa haykaltarosh va grafik musavvir V.A. Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga nazariy bilim berish jayronida mazmuniy to'liq ochib berishi uchun jonli nutq orqali so'zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat-lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.



Z. Inog'omov. Choyga.

**Maishiy janr** – tasviriy san’atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o’zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari – Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo’ladi. Realist rassomlardan P. Fedotov, V. Perov, V. Maksimov, V. Makovskiy, K. Savitskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo’shdilar. O’zbek rassomlaridan R. Ahmedov, M. Saidov, Z. Inog’omov, R. Choriyev, F. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etmoqdalar.

### Adabiyotlar

1. Abdullayev N.U. San’at tarixi. T.: O’qituvchi, 1986. (5-19)
2. Abdiyev V.I. Qadimgi Sharq tarixi, Toshkent, 1965 (4-13)
3. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусств Узбекистана, Т.:1984. (7-14)

### Tayanch tushunchalar

**Animalist** (lotincha «animal» hayvon) – hayvonlarni tasvirlovchi rassom.

**Kompozitsiya** (lotincha «compositio» tuzilish, qurilish) - badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g’oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi.

### Mustahkamlash savollari

1. San’at tarixi nimani o’rgatadi?
2. Tasviriy san’at turlari haqida so’zlang.
3. Tasviriy san’at janrlarini gapirib bering.

### 3.3. Kollejlarda o’quv jarayonini tashkil etish metodikasi

(O’quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish)

**Metodika, metod** – aslida bilish, o’rganish, tadqiqot yo’li, ijodiy usul, pedagogik usul, ma’noni anglatadi. Pedagogikada o’qitish metodlari deganda o’quvchilariga badiiy ta’lim-tarbiya berish jarayonida bilim, mahorat va kasbiy malakalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda dunyoqara-



shini tarkib topishda o'qituvchilarning qo'llagan har xil usullari tushuniladi.

**Metodika** ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmun va xususiyatlarini o'rganib chiqib, tasviriy san'atni o'qitilishining xilma-xil metodlarini qo'llashga o'rgatadi:

«**Tasviriy san'at o'qitish metodikasi**» o'qituvchining o'quvchilarga badiiy ta'lim berish usullarini puxta bilib olish darajasiga erishish va o'zlashtirish samarasining oshirilishini nazarda tutadi.

«**Tasviriy san'at o'qitish metodikasi**» pedagogikada ilmiy fan sifatida tajribadagi sinalgan ijobiy ishlarning nazariyasini umumlashtirib, o'quv va pedagogik amaliyotda samarali natijalarga ega bo'lgan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, ruhshunoslik, san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslangan bo'lib, tasviriy san'atni o'rgatishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi. Shu bilan birgalikda kelajak avlodning tarbiyalashida yangidan-yangi zamonaviy metodlarini aniqlab beradi.

Zamonaviy metodlardan interaktiv, pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalar, tabaqalashtirilib o'qitish, moduli o'qitish, didaktik o'yinli o'qitish, muammoli o'qitishni o'quv jarayonida qo'llanilishi kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini ham bajaradi.

Interaktiv metodlar — bu jamoa bo'lib fikr yuritish, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshirilishi.

Innovatsion texnologiya (ingl. Innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiya — pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bunday hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- o'quvchi-talabanning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod bilan izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabanning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshishini rivojlantirilishi;
- pedagog va o'quvchi-talabanning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TTV, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi — bu o'qituvchi va o'quvchi-talabanning belgilangan maqsaddan kutilgan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni o'qitish jarayonida, ko'zlangan maqsaddan samarali natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyati, ijobiy natijasi, mustaqil fikrlashi, ijodiy ishlashi, izlanishi, tahlili va xulosa chiqarishni tashkil etishlari, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabanning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va samarali natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tasviriy san'at o'qituvchisi har bir darsni oldindan tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritanani tuzish uchun o'qituvchi badiiy pedagogika, san'at psixologiyasi, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, metodlar va usullarni hilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Quyida tasviriy san'at fanidan «Perspektiva» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida havola qilamiz.

Mavzu :	Perspektiva
<p><b>Maqsad, vazifalar</b></p>	<p>Talabalarga <i>perspektiva</i> haqida tushuncha, uning ahamiyati, qonuniyatlari va qo'llash tartibini tushuntirish.</p> <p>Mavzuga oid materiallarni talabalar tomonidan o'zlashtirib olishlari hamda amaliy ijodiy faoliyatida qo'llashini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.</p>
<p><b>O'quv jarayonining mazmuni</b></p>	<p>Perspektiva fani va uning tushunchasi. Tasviriy san'at asarlarida <i>perspektiva</i> qonuniyatlarini aks etishi. <i>Perspektiva</i>ning maqsadi va ahamiyati. <i>Perspektiva</i> turlari, terminlari, qonun-qoidalari va bosqichlari. Chiziqli <i>perspektiva</i>ni amaliyotdagi qo'llanilishi.</p>
<p><b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b></p>	<p>Metod: Og'zaki bayon qilish, suhbat-munozara, «Skarabey» texnologiyasi, Klaster metodi.</p> <p>Shakl: Amaliy mashg'ulot, guruhlar va guruhchalarda ishlash.</p> <p>Vosita: Natura qo'yilmalari: kub, piramida, silindr, prizma. Ko'rgazmali qurollar.</p> <p>Usul: Bosqichlarda bajarilgan ko'rgazmali qurollar va o'quvchilar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar namunalari.</p> <p>Nazorat: Savol – javoblar, quyilmani bajarilishini kuzatish, tahlil etish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida</p>
<p><b>Kutiladigan natijalar</b></p>	<p>O'qituvchi:</p> <p>– Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Talabalar ijodiy faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Talabalarni tasvirlagan ishlarini guruhda ko'rik orqali baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi.</p> <p>O'quvchi-talaba:</p> <p>– Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda ijodiy tasvirlashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z - o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi.</p>
<p><b>Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)</b></p>	<p>O'qituvchi:</p> <p>– Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsga tadbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar</p>

	bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi-talaba: – Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrni ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, ularni o'rganish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish.
--	--

O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishishda amaliyot va o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi – talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Demak, tasviriy san'at ma'lumoti, bilimiga ega bo'lish uchun san'atning amaliy mashg'ulotlarini uzoq vaqt mobaynida samarali ijodiy mehnat orqali va har xil metodlarni qo'llash orqali egallanadi.

### **Multimedia vositalarini ta'lim jarayonida qo'llash**

Multimedia («ko'p muhitlik» degan ma'noni bildiradi) – zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo'lib, kompleks tushunchani anglatadi. Uning turli ko'rinishlari – matn, jadval, grafika, nutq, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia «inson - kompyuter» interaktiv muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda katta ahamiyatga ega. Bunda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqt tejash imko-

niyatiga erishiladi, olingan bilimlar o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, talabalar passiv tinglovchi sifatida ishtirok etadigan ma'ruzalar soni qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia darslari tatbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtidan bir qismini, ko'rgan materialining uchdan bir qismini eslab qoladi, ham ko'rib, ham eshitsu, axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa bu ko'rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi.

Multimediani qo'llash uchun quyidagi texnik vositalar kerak bo'ladi: kompyuter, lazer disklarini o'qiydigan CD-ROM qurilmasi, SB – ovoz xaritasi, AS – faol kolonka, CD – kompakt disk. Eng zamonaviy kompyuterlarda yuqoridagi qurilmalarning ba'zilari o'zida o'rnatilgan bo'ladi.

Ta'lim jarayonida multimediani qo'llashda o'qituvchiga hozircha dasturlovchi mutaxassis yaqindan yordam berishi kerak.

### **O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quvchilarini tabaqalashtirib o'qitishning asoslari**

Mustaqil O'zbekiston huquqiy, demokratik davlatni barpo etib, ta'lim tizimiga tubdan o'zgartirishlar kiritmoqda. Bunday o'zgartirishlarning yechimini «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topdi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish bo'limida «Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv shu jumladan, differentsiyalashgan dastur amaliyotga joriy etiladi» deb ko'rsatilgan.<sup>1</sup> Shuningdek, dasturning bosqichida «Majburiy umumiy, o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi» - deb ham ko'rsatilgan.<sup>2</sup> Shunga qaramasdan hozirda ta'limning barcha yo'nalishlarida tabaqalashtirib o'qitishni hayotga tatbig'i haqidagi harakatlar sezilarli emas.

Tabaqalashtirib o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni imkoniyatlari va qobiliyatlariga ko'ra guruh va sinflarga ajratish asosida, davlat ta'lim standartlari talablari darajasidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish hamda ularni malakalarini o'stirib

<sup>1</sup> Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997. – 55-bet.

<sup>2</sup> Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997. – 55-bet.

borishdan iboratdir. U o'z mazmuniga ko'ra ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga yordam beradi. Iqtidori yuqori bo'lgan o'quvchilarni keng va chuqurroq bilimlar olishiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tabaqalashtirib o'qitish o'rtacha o'qiydigan o'quvchilarga qaratilgan umumlashgan usublardan voz kechib, ularning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayonida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarning ortib borishi, ularning o'zlashtirish imkoniyati o'rtasida farq bo'lishi, yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlab borish jarayoni tabaqalashtirib o'qitishni joriy etishni taqozo etadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim o'quvchilarning hammasiga bir hil qiyinlik (murakkablik)dagi topshiriqlarni bermaslikni, ularning qobiliyati, imkoniyati va tayyorlik darajasiga binoan guruhlariga bo'lib o'qitishni o'z ichiga oladi.

Tabaqalashtirilgan ta'limning individual, guruhlar, sinflar va maktablar bo'yicha tabaqalashtirish shakllari mavjud. Ular orasida individual, guruhlar va sinflar bo'yicha tabaqalashtirish shakllari ko'proq foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hisoblangan modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish ham individual va guruhli tabaqalashtirish asosida olib boriladi. Pedagogika nazariyasida pedagog olimlar tomonidan tabaqalashtirilgan ta'limni ikki turi qayd qilinadi: 1. Darajali tabaqalashtirish (individual, guruhli ta'lim). 2. Ixtisoslashtirilgan tabaqalashtirish (fanni chuqur o'rgatish, kasbga yo'naltirishda maktab-sinflar, fakultativ, to'garaklar kiradi).

Tabaqalashtirib o'qitishga o'tish muayyan sharoitlar yaratilishi bilan bog'liq. Buning uchun, avvalo, har bir fandan tabaqalashtirib o'qitishga mo'ljallangan dasturlar, darsliklar, didaktik materiallar yaratish zarur. Fanlarni tabaqalashtirib o'qitish uchun o'quvchilarning bilimi va malakasi hajmi, olgan bilimlarni tahlil qilishi va xulosalay olish, kitob bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarining mavjudligi, o'quv faniga qiziqishi va havasi, ishchanligi, qat'iyatligi, o'qishga layoqatligi, salomatligi, intizomligi va boshqa xususiyatlari aniqlanadi. Bunday xususiyatlar suhbat, so'rovnomalar to'ldirish, amaliy va yozma ishlar, testlash, ijtimoiy va boshqa tadbirlar orqali aniqlab olinadi. Ko'pchilik pedagoglarning fikricha, fanlarni tabaqalashtirib o'qitish uchun o'quvchilarni 2 yoki undan ko'proq, masalan, bo'sh o'zlashtiradigan, o'rta o'zlashtiradigan, yaxshi o'zlashtiradigan guruhlariga yoki sinflarga ajratilishi lozim. Guruhlar yoki sinflar soni guruhdagi o'quvchilar va parallel sinflar soniga bog'liq. Har bir sinf yoki guruh maxsus dastur asosida o'qitiladi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim mazmunini ishlab chiqishda beriladigan ma'lumotni murakkabligi har xil bo'lishi, o'quv materiallari har qaysi guruh saviyasiga mos kelishi, beriladigan nazariy va amaliy topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otishga qaratilganligiga e'tibor beriladi. Tabaqalashtirilgan o'qitish mustaqil o'qish bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli asosiy e'tibor mustaqil o'qib, bilim olishga qaratiladi. Bunday o'qitishda ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylilik, uzviylik, onglilik kabi didaktikaning umumiy prinsiplari alohida ahamiyatga ega. Ta'limning bu xili o'qituvchidan izlanuvchanlik va mohirlikni, faol ish olib borishni talab qiladi.

Tabaqalashtirib o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv materiallarni o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. O'quv jarayonini tabaqalashtirishni o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish faoliyati darajalari asosida olib borish mumkin. Bunday darajalar to'rt xil bo'ladi: *tanishuv, algoritmik, evristik va ijodiy*.

O'zlashtirishning *tanishuv* darajasida o'quvchilarning bilim olishi oldindin o'zlashtirilgan materiallar bilan qayta tanishish asosida olib boriladi. Bu darajada obyektlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinadi. O'zlashtirishning bu darajasi uchun beriladigan topshiriqlar matnida to'g'ri javoblar bilan noto'g'ri javoblar ham birga beriladi, o'quvchidan uni topish talab qilinadi. Masalan, Palitra nima uchun kerak? A—chizmachilik asboblari; B—bo'yoqlarni aralashtirish uchun; D—rangtasvir ishlash uchun; E—haykal ishlash uchun, G—ganch o'yish uchun. To'g'ri javoblar: B, D.

O'zlashtirishning ikkinchi *algoritmik* darajasi o'quv materiallari va undagi tushunchalarni biron ko'rsatmasiz mustaqil qayta mustahkamlash bilan bog'liq. Bunda o'quvchi o'z xotirasiga tayanib ilgari o'rgangan va o'qigan materiallarni qayta tushuntirib beradi. Bu darajadagi topshiriqlarda tayyor javoblar berilmaydi, ularni o'quvchining o'zi topadi. Masalan, «tasvirlangan narsalarni yorug'soyasini shtrixlar orqali bajaring» tarzida savol qo'yiladi.

Uchinchi, *evristik* o'zlashtirish darajasi o'quvchi tomonidan avval o'rganilgan materiallar asosida yangi axborotni qo'lga kiritish bilan bog'liq. Bu darajadagi topshiriqlar o'quv materialining biror qismi bilan bog'liq, lekin butun o'quv predmeti uchun tegishli bo'lmaydi. Masalan, «Xromatik qanday ranglar?» savoliga javob berish uchun o'quvchi xromatik degani nima, unga qaysi ranglar kiradi, qanday tuslarga ajratilishini bilishi asosida xromatik to'g'risida tushuncha hosil qiladi. Bunday topshiriqlar darslikdagi ko'pchilik mavzular so'nggida keltirilgan.

O'zlashtirishning to'rtinchi *ijodiy* darajasi o'quvchining o'quv materiallarini qayta tahlil qilib, ularni yangi vaziyatda paydo bo'ladigan muammolarni hal etishda foydalanishi bilan bog'liq. Faoliyatning bu darajasi ijodkorlik xususiyatiga ega. Ijodiy darajaga tegishli topshiriqlar o'quvchidan voqea va hodisalarni tushuntirishda boshqa fanlardan olingan tushunchalardan foydalanishni, muammoga ijodiy yondoshishni talab etadi. Masalan, ranglar xususiyatini tushuntirishda fizika fanidan ham bilimini talab qiladi.

### **Tasviriy san'atni o'qitilishida pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi» deb ko'rsatilgan.<sup>1</sup>

Pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalarning tahlili, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish jarayoniga qo'yilgan talablar, maqsad va vazifalarni amalga oshirishda didaktik o'yin, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Texnologiya so'zi yunoncha "Texnos" — hunar va fan so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "hunar fani" ma'nosini bildiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadi qisqa vaqt davomida o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda keng va chuqur bilim va malakalar berishdir.

Pedagogik texnologiyaning muhim hususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchilarni o'qitish emas, ularni bilim va malakalarini mustaqil egallashlariga qaratishdir. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni mustaqil ishlariga rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning samarasi, asosan, o'quvchilarni tegishli o'quv—metodik majmualar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'ladi.

#### **Didaktik o'yin texnologiyalari.**

Tasviriy san'at darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda imkon beradi. Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi.

Didaktik o'yinli darslarning *sujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar va o'yin mashqlar* kabi turlari bor.

<sup>1</sup> Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: 1997. — 41-bet.



## **Modulli ta'lim texnologiyasi**

Modulli ta'lim texnologiyalaridan tasviriy san'atni o'qitilishida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyati darsda o'rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan modullarga ajratish va u yuzasidan modul dasturini tuzishidan iborat. Modul dasturi o'quvchining mazkur darsda o'quv bilish faoliyatini boshqarish vositasi bo'lib, unda modul dasturining didaktik maqsadi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar va topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar beriladi.

### **Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi**

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruh bo'lib o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish, «arra» yoki «zigzag» (E. Aronson), «birgalikda o'qiyamiz» metodlaridan foydalanish imkoniyati mavjud:

1. Guruh bo'lib o'qitish (R. Slavin) metodidan foydalanilganda o'quvchilar teng sonli ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Guruhda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborini qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilarning tom ma'nodagi hamkorligi, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, ularda bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi paydo bo'lishi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi bilan bog'liq. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirish natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi guruhga foyda keltirishini tushunib, mas'uliyatni his qilib, bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun ko'proq izlanishga intiladi.

### **Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining ijodiy izlanish metodi**

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. Bu metod 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh. Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratilgan.

O'quvchilar alohida individual yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanish natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi yakuniy sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining, muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarning, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga zamin tayyorlaydi.

### **3.4. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash**

Mashg'ulotning asosiy maqsadi - o'quvchi-talabalar tomonidan tuzilgan dars konspektini mavzulariga ko'rgazmali qurollar tayyorlashni metodik jihatdan o'rgatish. Har bir tayyorlangan ko'rgazmali qurol darsning maqsadini to'liq yoritib berishi kerak. Bo'lajak dars mavzuyining yoritilishi mobaynida baravar ko'rgazmali qurolning metodik g'oyasining eskizi chizib borilsa maqsadga muvofiqdir. Dastlabki ko'rgazmali qurol eskizlari metodist o'qituvchi bilan bir fikrga kelib tasdiqlangandan so'ng, belgilangan bir vatman qog'ozi betiga did bilan rangda ishlanadi (bajariladi).

Ko'rgazmali qurol eskizlarini bajarishda talaba quyidagi talablarni e'tiborga olishi shart:

- fan dasturidagi tasviriy san'at faniga muvofiqligi;
- didaktik prinsip va qoidalari asoslariga rioya qilgan holda ishlash;
- shaxsning garmonik rivojlanish xususiyatlarini faol shakllantirishga yordam berish.

Ko'rgazmali qurolning badiiy bezagi o'z funksional vazifasiga loyiq bo'lishi kerak. Masalan, o'quv jadvali «bosiq» ranglar bilan bajarilishi lozim. Kompozitsion tuzilishning yechimini o'ylab topish

ham muhimdir. Har xil ortiqcha bo'lgan tasvirlar bilan to'ldirishni ham hojati yo'q. O'quv qurollari-ni bosh yozuvlari (sarlavhalari) qisqa bo'lishi, uning asosiy g'oyasini aks ettirishi lozim. Ravon o'qiladigan shrift tanlangan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurolning sarlavhasi undagi tasvirlarga nisbatan joylashtiriladi.


Ko'rgazmali qurol tayyorlashda tush, guash, ko'mir tayoqchasi, sangina, pastel, rangli bo'r, akvarel kabilardan foydalaniladi. Plakatlarda tasvirlarning bosqichlari, suv bo'yoqda ishlash sirlari, perspektiv qisqarish sirlari va qonunlari, amaliy ishlarning bosqich-ma-bosqich bajarilish yo'llari ko'rsatiladi.

Tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar qo'llanish vazifalariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Darslarda ko'pincha bosqichma-bosqich ko'rsatuvchi plakatlar qo'llaniladi. Bunday ko'rgazmali qurollarni bo'lg'usi o'qituvchi naturaga qarab rasm ishlash, rangtasvir kompozitsiyasi, haykaltaroshlik kabi darslariga mo'ljallab tayyorlashlari lozim.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarida tasvirlash ketma-ketligini bir necha bosqichlarda ko'rsatiladi.

Naturaga qarab rasm chizish darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarda tasvirlashning quyidagi bosqichlari ko'rsatiladi:

### Tasvirlash bosqichlari



**Shaklini qurish****2 - bosqich**

Kuzatish perspektiva ufq chizig'i, kesik nuqtalari, ko'rish nuqtasi, surat tekisligi va hokazo.	Narsalarni umumiy shakl ko'rinishini tasvirlash	Narsalarni bo'laklarini batafsil tasvirlash	Soya va yorug' chegaralarini aniqlash. Tasvirni narsa bilan taqqoslash.
---	---	---	---

**Hajmini aniqlash****3 - bosqich**

Tuslik nisbatlarini aniqlash va hajmini ko'rsatish	Yorug'likligi, yarimsoya, shaxsiy va tushuvchi soyalar, refleksi	Tus gradatsiyasi. Asosiy shakldan bo'lak qismlariga o'tish	Tuslariga ishlov berish va fazoviy joylashuvini tekshirish
--	--	--	--

**Umumlashtirish****4 - bosqich**

Asosiy qismini ikkinchi darajalikdan ajratish	Yakunlangan tasvirni yaxlitligi	Modelni xarakteri va xususiyatlari (materialligi)
---	---------------------------------	---

Ishning rejalashtirilishi - bajarilayotgan vazifani to'g'ri yechimini topishda ishonchlidir.

1. Ma'lum mavzu bo'yicha tasvirlanadigan rasmlarni variantlarining tuzishlari ko'rsatiladi.
2. Kompozitsiyaning asosiy elementlarini tasvirlash.

3. Katta va kichik o'lchamlardagi ko'rinishlarni aniq tuzilishini tasvirlash.

4. Narsalarning yorug' va soyalarini bo'yoq bilan ishlash usullarini ko'rsatish.

5. To'liq tugallangan kompozitsiya.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash darslaridagi ko'rgazmalikni yana bir turi - rangtasvir asoslarini tasvirlash orqali ko'rsatilishidir. Jozibali rangbarang bo'yoqlar bilan rasm ishlashni o'quvchilarga og'zaki tushuntirish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvchi alohida planshetga tortilgan qog'oz betida suvbo'yoqlar bilan ishlash usullarini ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir.



Mavzuli kompozitsiya ishlash.

Tasviriy san'at tarixi darslarida san'at asarlarini katta o'lchamdagi reproduksiyalaridan ko'rgazmali qurol sifatida qo'llaniladi. Oxirgi paytlarda asarlarni katta o'lchamdagi reproduksiyalarini topilishi amri mahol. Bunday holda reproduksiyalarni skaner orqali kompyuter xotirasiga kiritib videoko'zgu orqali kattalashtirib ekranda ko'rsatiladi va asarlarning badiiylik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Tasviriy san'at darslarida bunday ko'rgazmali qurollardan foydalanish darsni samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda yordam beradi.

### 3.5. Tasviriyy san'at darsini tahlil qilish

Talabaning amaliy mashg'ulot vaqtida o'tkazgan darslari va o'quv tarbiya mashg'ulotlari guruhning barcha talabalari, o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilinadi.

Bu muhokama va tahlillar umumdidaktik va metodik tomonlarini birlashtirib amalga oshiriladi.

Tahlil jarayonida eng muhimi, talaba o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilib o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baholay bilishidir.

Maktab yoki kollejdagi pedagogik amaliyotiga chiqishdan avval tasviriyy san'at darslarini o'tkazish oldidan mashq qilinishi, bo'lg'usi o'qituvchilarning serunum professional o'sishiga yordam beradi.

Oliy o'quv yurtida mashg'ulotlar jarayonida talabalar tomondan o'tilgan tasviriyy san'at darslari yoki tarbiyaviy tadbirlar guruhdagi tahlili, odatda, o'zini-o'zi baholashdan, o'zining hisobotini tahlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktini baholashdan boshlanadi. Bunda bo'lajak rassom o'qituvchi uchun juda zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

O'tilgan darslarning tahlil qilinishi dars berishdan ham muhimroqdir, chunki shu tahlildan keyin ular yana nimalar ustida ishlashi kerakligi yoki qanday muvaffaqiyatga erishganliklari aniq va ravshan ko'rinadi.

**O'tilgan darslarni tahlil etish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:**

1. Darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlarini aniqligi va ahamiyati.

2. Darsga tayyorgarlik ko'rishda va uni amalga oshirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi.

3. Ta'lim-tarbiya vazifalarining dars tuzilishiga mosligi.

4. Darsni bayon etishning ketma-ketligi va mantiqiyliги va dars berish nutqining toni, ritmi, ta'sirchanligi.

5. Yangi materialning tanlanganligi va bayon etilishi. Bilimlar hajmi, material mazmuni dasturiga, o'quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi va darslik talablariga muvofiqligi.

6. Bayon qilinayotgan materialning ilmiy va g'oyaviy yo'nalganligi, hayotiyliги, tarbiyaviy xarakterdaligi.

7. O'quv materiallarni bayon qilishda, didaktik prinsiplarga amal qilinishi, darsning bosqichlari va davomiyligi.

8. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirilishi, dars bosqichlarida o'quvchilarning diqqat e'tiborini saqlab turish usullari. Avval o'tgan mavzular bilan bog'liqligini ta'minlanganligi. Mavzuni idrok qilish va anglab olishlari uchun o'quvchilarni ijodiy ishga jalb qilinishi.

9. Dars o'tish metodlarining optimalligi (suhbat, ko'rgazmali, amaliy induktiv va deduktiv, reproduktiv va izlanish, mustaqil ishlash metodlari, ta'limni sifatini nazorat qilish metodlari). Darsni bayon etish tizimi va ketma-ketligi, obrazlilik, tushunarlilik. O'quvchilarning oldiga muammoli savollarning qo'yilishi, mantiqiy masalalarning shakllanishi.

10. Dars o'tish mobaynida ta'lim shakllarini optimal birligi (umumsinfli, guruhli, individuali) Individual yondashishni amalga oshirilishi.

11. Darsni o'tish vaziyatida turli ko'rgazmali qurollardan, kinofilmlardan va axborot texnologiya vositalaridan, sinf taxtasidan unumli foydalanganligi.

12. Mavzuni mustahkamlashga berilgan ijodiy mustaqil ishlar yo'nalishlarining optimalligi.

13. O'quvchilarning darsdagi xulqi, darsga bo'lgan munosabati, faollik darajasi, qiziqishi, intizomining ahvoli, intizom buzilishining sabablari.

14. Uy vazifalarining turlari va hajmi, ularni bajarish to'g'risida o'qituvchining metodik ko'rsatmalari, uy vazifalarining mazmunini o'quvchilarning tushunib olishlari, ba'zilarga qo'shimcha (individual) vazifalar berish.

15. O'tilgan darsga umumiy xulosa yasash.



## 4-bob. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK TASVIRLAR ISHLASH

### 4.1. Pedagogik tasvirlarning xususiyatlari

Ko'rgazmali ta'lim didaktik prinsiplarning asosiylaridan biridir. Grafikali ko'rgazmali qurollar, asosan, matematika, adabiyot, tabiatshunoslik, tasviriy san'at darslarida ko'proq foydalaniladi. Bu esa badiiy asarlar reproduksiyalari, fotorasmlar, diafilmlar, diapozitivlar, kitob illustratsiyalari kabilardir. Shu bilan birgalikda shuni aytish lozimki, o'qituvchi o'z tajribasida sinf taxtasida rasm ishlash yo'llaridan juda ham kam foydalanadi. Aftidan yo o'qituvchilarda bo'r bilan sinf taxtasida rasm ishlash ko'nikmalari yo'q yoki ular pedagogik rasimga yetarli e'tibor qaratmaydilar.

Pedagogik tasvir bu — o'qituvchining sinf taxtasiga, maxsus planshetlarga va o'quvchi rasm daftarining burchak chetiga tasvirlangan rasmlardir.

Ayrim holda grafik ko'rgazmali qurollar pedagogik rasmlarning o'rnini bosolmaydi. Bularni tushunadigan tajribali o'qituvchilar og'zaki tushuntirish vaqtida namoyish etilgan ko'rgazmali qurollar kerakli bo'lgan tasavvur ko'rinishlarini hosil qilmagandan so'ng pedagogik rasmlardan keng foydalanishadi. Pedagogik tasvirlar tayyor tablitsalar, rasmlardan o'zining bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Bu afzallik shundan iboratki, o'qituvchi o'z hikoyasini tasvir orqali ko'rsatishda, o'quvchilarning ko'z o'ngida tasvirni paydo bo'lishi, uni to'ldirilishi va tugallanish ko'rinishlarini dinamik jarayonini (holatini) yaqqol ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Tasvir mustaqil ravishda yoki illustratsiyalarni to'ldiruvchi bo'lib, ularni bo'lak qismlarini izohlab borishi mumkin. Oddiy, aniq tasvirlar u yoki bu voqeani, narsalarni obrazli, ko'rgazmali qilib ko'rsatadi. Lekin ularni biron-bir maxsus hozirliksiz bajarish mumkin emas. Noto'g'ri, palapartish rasmlar, narsalar to'g'risida yanglish tasavvurlar beradi va estetik didni shakllanish jarayoniga



salbiy ta'sir etadi. Va aksincha, mazmunli, hamda chiroyli bo'r bilan bajarilgan tasvirlar narsalar to'g'risida to'g'ri hamda aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Savodli pedagogik rasm grafikali fikrlashni, kuzatuvchanlikni o'stiradi. Pedagogik rasmni chizishga qiziqishi fanning o'ziga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Odatda, og'zaki tushuntirish jarayonida tasvirlar bajarilib borilsa, o'quvchilarni diqqat e'tiborini ta'minlab borishi mumkin. O'quvchilarni bir vaqtda eshitish va ko'rish qobiliyatlari orqali olayotgan taassurotlari, o'zgacha yangi materialni chuqur va mustahkam o'zlashtirishida aniq tasavvurlar bo'lishida yordam beradi.

Pedagogik rasmlarni tasvirlashda eng muhimi aniq, sxemali tarzda, narsalarni o'ziga xos xarakterli shakli, o'lchamlari, hajmini, ayrim paytda iloji boricha ranglarini ham to'g'ri tasvirlashdir. Ularni har bir shtrixi va chiziqlari ma'noli ishni bajaradi.

Ko'rgazmali qurollar bilan bir qatorda pedagogik rasmlarni ham tarbiyaviy imkoniyatlari juda kattadir.

Pedagogik rasmlarni xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Pedagogik rasmlar o'quvchilarni rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi.
2. Darsga faol ishtirok etishga yordam beradi.
3. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatishga (yordam beradi) yo'naltiradi.
4. Rasmni qanday qilib chizishga yo'nalish beradi.
5. Tasvirlash bosqichlarini namoyish qilib ko'rsatadi.

## 4.2. Pedagogik tasvirlarning turlari

Pedagogik tasvirlarning turlari bir nechta. Darsni hikoya qilish va tushuntirishning mazmuni va maqsadlariga ko'ra, quyidagi u yoki bu pedagogik tasvirlash turlari qo'llaniladi:

- a) *chiziqli tasvirlash;*
- b) *shtrixli tasvirlash;*
- v) *tonallik (tusli) tasvirlash.*

**Chiziqli tasvir** — eng oddiy va keng tarqalgan turi. Bu yerda narsalar yaxlit tutash chiziqlar yordamida yorug'lik manbalarisiz va shakl hajmisiz tasvirlanadi. Chiziqli tasvir o'z navbatida, tekisli (yassilik) va perspektivali bo'lishi mumkin. Tekisli rasmda narsani faqat uzunligi va eni beriladi. Masalan, barg shaklini rasmi, tog'lar va hokazo. Perspektivali chiziqli tasvirda narsalar uchta o'lchamdan iboratligini ko'rsatadi; bo'yi, eni va balandligini.

Bunday rasmlarni bajarish mashaqqatli, negaki perspektiva yordamida tasvirlashni asosiy qonunlarini bilish kerak va sinf taxtasida boʻr bilan ishlash tajribasiga ega boʻlishi kerak. Perspektivada tasvirlangan rasmda narsalar toʻgʻrisida toʻliq tasavvur bera-di (oʻquvchilar stoli ustida kitoblar).

**Shtrixli tasvir** — qisqa chiziq shtrixlarning kombinatsiyasini oʻz ichiga oladi, odatda, ular chizilgan narsalarni soya tomonlarida joylashadi. Narsalar hajmini koʻrsatishda tasvirdagi shtrixlar buyumning shakllarining yoʻ-nalishlari yumaloq va tekislik boʻyicha yuritiladi. Narsani hajmi koʻrsatilmagun-cha shtrixlar bir necha marotaba yurga-ziladi. Chiziqli tasvirlashga qaraganda shtrixli tasvir murakkabroq, shu sababli ham undan foydalanishdan oldin (te-gishli) mashqlar talab qiladi. Narsani faqatgina siluet yoki konturini emas, balki uning hajmini ham koʻrsatish kerak boʻlgan holda shtrixli tasvirlashdan foydalaniladi.



A. Matiss «Ayol portreti».



Shtrixli tasvir.

**Tonallik (tusli) tasvir** — bajarilishi yanada murakkabroq. Bunday usuldan narsani yanada yaxlit va koʻrgazmali koʻrsatishda qoʻl-laniladi. Tusli tasvirni bajarilishi quyidagicha: sinf taxtasiga narsa-ni tashqi koʻrinish chiziqlari bilan tasvirlanadi, unga boʻr surtil-gan latta bilan yupqa qatlam yurguziladi; qorongʻi boʻlgan joylari

o'chiriladi, yorug' joylari bo'r bilan yanada kuchaytiriladi; undan keyin chizilgan narsani xarakterli qismlari bo'rttirib chizib qo'yiladi.


Tusli rasmlarda ayrim hollarda rangli bo'rlardan ham foydalaniladi.

O'qituvchiga ko'pincha bironbir ko'rinishni paydo bo'lishini, harakati-ni, dinamikasini tushuntirishga to'g'ri keladi. Ularning shu holatini ko'rsatish va afzal tushunishga **multiplikatsiya** – rasmlar bera oladi (ro'y berayotgan voqeani ketma-ketligini tasvirlovchi rasmlar).

Har bir rasm, o'quvchilarning ko'z oldida paydo bo'ladi va tavsiflanadi (izoh beriladi). Agarda o'qituvchining sinf taxtasida bo'r bilan ishlash malakasi bo'shroq bo'lsa, u paytda oldindan qog'ozga 3-4 ta bosqichda bajarilgan rasmlarni tayyorlab olishi mumkin. Dars vaqtida ularni ketma-ket ko'rsatib tushuntirish olib boriladi.



Naturnort.



Multiplikatsiya usulida ishlash.

### 4.3. Rasmlarni bajarish yo'llari va topshiriqlar

Mashg'ulotning asosiy maqsadi – talabalarni tasviriy san'atdan pedagogik rasmlarni xususiyatlari va tasvirlanadigan narsalarni boshlang'ich bosqichlarining metodik nozik sirlari bilan tanishtirish.

Pedagogik rasmlar namoyish etishda tasviriy san'atda ishlatiladigan materiallardan rangli bo'rlar, rangli suv bo'yoqlar, ko'mir tayoqchalar, sangina va boshqalardan keng foydalanmog'i zarur.

Pedagogik rasm chizish borasida quyidagi umumiy eslatmalarga e'tibor qilish shart:

1. O'qituvchi hamma vaqtda pedagogik rasmni tasvirlash bilan birgalikda og'zaki tushuntirib borishi kerak.

2. Sinf taxtasiga va planshetga chizilgan rasm iloji boricha kattaroq va hajmli bo'lishi kerak. Agarda tasvir kichik bo'lsa, so'ngi partalardagi o'quvchilarga yaxshi ko'rinmasligi ham mumkin.

3. Namoyish qilish paytida har bir ishlash uslubiga qisqacha tushuntirish berib borish kerak.

4. O'quvchilarni rasm daftarlarini chetiga chizilgan rasmni tushunarli tasvirlash usullarini ko'rsatish yoki o'rgatish maqsadida bo'lishi kerak. Pedagogik rasmlar barcha tasviriy san'at dars turlarida qo'llaniladi.

Maxsus tayyorlangan planshetlarda rasm chizish orqali o'qituvchi o'quvchilarga rangtasvirni qanday ishlash texnikasi to'g'risida tushunchalar bera turib, uni amaliy jihatdan ko'rsatadi. Akvarel bo'yog'i bilan rasm ishlash borasida ikki xil ranglarni aralashirib uchinchi rangni hosil qilishni ko'rsatadi. Fazodagi rang tularini o'zgarishlari to'g'risida, uni akvarel bo'yog'i bilan ishlash texnikasini tushuntirish keraklidir. Darsda o'quvchilarga «allaprima», «grizayl», «lessirovka» kabi usullarni shu planshetdan foydalanib tushuntiriladi.

Maxsus rangli qog'ozlarga guash bilan, bo'r bilan rasm ishlashni turlicha texnikalari bilan ishlash usullarini tahlil qilib ko'rsatadi.

Suhbat darslarida belgili tushunchalarning qonuniyatlarini ko'rsatish maqsadida pedagogik rasmdan foydalaniladi. Masalan, simmetriya, perspektiva va boshqa dekorativ rasm ishlashda ko'pincha naqshlarning kompozisiya qonunlarini ko'rsatish uchun pedagogik rasmlardan foydalanishadi.

Pedagogik rasm – o'quvchilarga estetik tarbiya berishda, bilim asoslarini, tasvirlash ko'nikmalarini o'stirishda asosiy omildir.

Shu bilan birga, talabalarni o'zi olgan bilimlarining hisoboti uchun umumiy o'rta maktab va o'rta maxsus kasb-hunar kolleji dasturlarida ko'rsatilgan dars mavzulari asosida ko'chirma tasvirlar chizilgan rassom-o'qituvchining pedagogik albomi bo'lishi kerak va talab darajasida tasvirlangan rasmlarni topshirishlari kerak. Bunday albomlarda quyidagi mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin:

1. Turli shakldagi daraxtlar: tol, tut daraxti, terak shoxchalari, yaproqlari, gullari va hokazo.

2. Uy va yovvoyi hayvonlarning tasvirlari: a) sigir, ot, qo'y, echki, tuya, mushuk, eshak, tovuq va boshqalar; b) yirtqich hayvonlar

va qushlardan: bo'ri, yo'lbars, tulki, ayiq, sher, quyon, arslon, fil, qar-g'a, burgut, kalxat, chumchuq va boshqalar.

3. Hayvonot olamining ba'zilaridan: kapalak, qo'ng'iz, chigirt-ka, pasha, ninachi, beshiktebratar, baliq, qurbaqa, kaltakesak, ilon va boshqalar.

4. Uy-ro'zg'or buyumlaridan: qozon-tovoq, choynak-piyola, sandiq, shkaf va boshqalar.

5. Sport o'yinining jihozlaridan: qo'lda ko'tarish uchun mo'l-jallangan turli og'irlikdagi toshlar, koptok, shtanga, xokkey buyum-lari va boshqalar.

6. Transport vositalaridan: avtobus, yuk mashinasi, yengil ma-shina, poyezd, samolyot, vertolyot, raketa va boshqalar.

7. Qurilish va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan vositalar: traktor, yuk krani, ekskavator, kombayn, og'ir yuk mashinalari va boshqalar.


8. Harbiy texnik vositalardan: tank, harbiy samolyotlar, avtomat, miltiq, suv osti kemalari, kemalar va boshqalar.

9. Ustalik va duradgerlik vositalardan: bolta, pichoqcha, bolg'a, tasha, mix, randa va boshqalar.

10. Inson bosh qismining turli holatdagi tasvirlari.

11. Inson gavdasi turli xil xarakatlarining ko'rinishlari: yurishi, o'tirishi, yotishi, turishi, yugurgandagi holati; sakrash holati, ish bajarish holati va boshqalar.

### ***Namunalar:***



Yaproqlar tasviri.



Daraxtlarning bosqichli tasviri.



F. Vasilyev. Eman daraxti.



Hayvonlarning tasvirlari.






Hayvonlarning tasvirlari.




Hayvonlarning tasvirlari.



Qushlarning tasvirlari.




Ninachi.



Qo'ng'iz.



Kapalakar.



Transport vositalari.



Transport vositalari.



Havo transporti.



Inson bosh qismining turli holatdagi tasviri.



Inson gvdasi turli xil harakatlarining ko'rishlari.



N. Dolbov.  
Ikki figura.



O'quvchilar. Bo'r.






Kuchukcha yetaklagan qiz.





Ijodiy homaki tasvirlar.



Inson qomatining nisbati.



Kiyimli ayol modeli. Guash.



### 5-bob. TASVIRIY SAN'AT ASARLARINING BADIY TAHLIL QILISH

Yuqori mahorat bilan bajarilgan badiiy asarlarni (surat) shartli ravishda 14 tarkibiy qismga ajratib, ularga badiiy tahlil qilish uchun asosiy mezon sifatida tayanish mumkin. Bular quyidagilar:

1. Qog'ozga joylashtirish — kartinadagi tasvirlanayotgan qismlari qog'oz o'lchamida maqsadli o'rnatilishi.

2. Konstruktiv qurilish. Oddiy qurilish: umumlashtirilgan va geometrik shakldan aniq tashqi ko'rinishiga, o'qlar bo'yicha tasvirlanishi va shu kabi.

3. Tus. Umumiy va mahalliyga ajraladi. Umumiy — bir buyum ikkinchisiga nisbatan yaxlitlikdagi qanchalik to'q yoki ochligini ko'rsatsa, mahalliyda esa — buyum qismlarini yoritilganlik darajasidagi farqi belgilanadi.

4. Rang. Buyumning bo'yoq (umumiy) rangi: biron-bir rang doirasidagi rang — tuslarning xilma xilligi.

5. Surtma. Tasvirlanayotgan suratda shakli, rangi, o'lchami bo'yicha ikkita bir xil surtma bo'lmaydi. Surtma shaklini belgilab, buyumning fakturasini ko'rsatishga qaratiladi.

6. Bo'yoqlarni bir-biriga monand birikmasi. Bo'yoqlar bir-biri bilan musiqadagi akkord kabi hamohangli va turli kompozitsiyalarida takrorlanmas bo'lishi kerak.

7. Shtrix. Tuslovchi: parallel; kesishtiruvchi: xomaki — aylana — parchalangan, yaxlit — uzilib-uzilib, qalin, ingichka.

8. Soya va yorug'. Buyumda 5 ta soya-yorug' qismlari: yorug', yarim soya, soya, refleksi, shu'la. Shaxsiy va tushuvchi soyalari.

9. Perspektiva. Chiziqli (frontal, burchakli); havoyi (rangli, tusli).

10. Odam va hayvonlarning nisbatlari va anatomiyasi.

11. Kiyimlar bukilishlarining paydo bo'lish qonuniyatlari.

12. Kompozitsiya tuzish qonun-qoidalari.

13. Bo'yoq surtish texnologiyasi. Har bir holatda o'ziga xos

bo'yoqni surish uslubi mavjud, ayniqsa, moybo'yoq bilan ishlashda: quyuq qilib, lessirovka, chala qurigan mo'yqalam bilan, turli ish qurollar bilan, qatlamni ketma-ketlik surtishining o'ziga xosligi (masalan, suv bilan ko'katlarni tasvirlash uchun turli texnologiyadan foydalanish kerak bo'ladi).

14. Tasvirlanayotgan sahnaning ifodalilik darajasi. Mahoratli rassom sahna, voqea, davrni eng xarakterli joyini ko'rsata oladi, o'rta miyona esa nimani ko'rsa shuni chizadi. O'ziga qarab chizish bilan badiiy kompozitsiya – asari bir xil emas.

Ma'lum darajada qisqa vaqt ichida mahoratli bo'lish uchun yuqorida keltirilgan komponentlar bo'yicha o'zining va boshqa ishlarni tahlil qilishni o'rganishi lozim.

Kompozitsiyalarni mezonlar asosida tahlil etish jarayonida barcha mavjud bilim va ko'nikmalardagi bo'lgan kamchiliklarini yaxlit ko'rish mumkin, agarda ular bo'lsa. Masalan, odatdagidek, ishni baholashini olsak: «..umuman yomon emas, faqat mana bu yerida ozgina kuchaytirish lozim, bu yerida esa nimadir etishmaydi», bunday noaniq mezonlar (uslub)da yuz yil o'qitmasin ma'lum darajadagi ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Ta'limda aniq yo'nalish mavjud bo'lgan taqdirda yuksak tempda (sur'at) taraqqiy etishi mumkin. O'quvchilar uchun aniq yo'nalish asosida xatoliklari nimada, ular qanchalik jiddiy va uni qanday qilib tuzatish mumkin ekanligi butunlay aniq bo'ladi.

### **5.1. Talabalarning san'atshunoslik madaniyatini rivojlatirish**

Umumiy o'rta ta'lim maktab va kasb-hunar kolleji o'quvchilarini badiiy ta'lim muammolari uzviy ravishda san'at fakultetida pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bog'liqdir. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalarni san'atshunoslik madaniyatini rivojlanganligi tasviriy san'at atamalarini<sup>1</sup> va tushunchalarini ma'lum darajada o'zlashtirishi, o'ziga xos xususiyatli atamalarni lug'aviy boyligi bilan ta'riflanadi va ulardan foydalanishi hamda ma'lum darajada san'atshunoslikka oid fikrlashlarining shakllanishi bilan belgilanadi. Shu boisdan san'at fakulteti talabalarini san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish, badiiy ta'limning til asoslarini o'rganish, maktabda tasviriy san'at darslarida atamalar va tushunchalarni o'rgatishning

<sup>1</sup> S. Abdirasilov. Tasviriy san'at atamaları. T.: TDPU, 2003.

metodlarini o'zlashtirish uchun ta'lim jarayoniga quyidagi ma'lumotlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchilar dars jarayonida asarlarini tahlil qilishda turli xil tasviriy san'at atamalardan bevosita foydalanadilar. Ayrim o'qituvchilar esa rus tilidagi «peredniy plan», «sredniy plan», «dalniy plan» kabi atamalarni birinchi plan, ikkinchi plan, uchinchi plan deyishadi. Bu so'zlar ma'noni to'la yoritib bermaydi. «Plan» o'zbek tilida «reja» degan ma'noni bildiradi. Agarda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib ishlatilsa - birinchi reja, ikkinchi reja, uchinchi reja deyiladi. Shuning uchun tasviriy san'at asarlarini tahlil qilishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun atamalarni mazmuniga mos tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Tajribali tasviriy san'at o'qituvchilari bu atamalarni - «oldingi ko'rinish», «o'rtangi ko'rinish», «uzoqdagi ko'rinish» deb qo'llashadi.

«Tabiat ko'rinishi», «manzara» (peyzaj) atamalar bir-biriga yaqin tushuncha, ammo ikkalasi ham ikkita ma'noli atama. Tabiat ko'rinishi - biz ko'rish va sezgi qobiliyatimiz orqali qabul qiladigan real voqealik bo'lsa, manzara - shu ko'rinishning badiiy tasviri.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida talabalar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Bular quyidagi sabablar bilan bog'liqdir:

- milliy maktablar tasviriy san'at darsliklari bilan to'liq ta'minlanmagan;

- hozirgi kunda maktab o'quvchilari dars jarayonida atamalar mazmunini chuqur anglamaydi;

- tasviriy san'atni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar juda ham kam;

- pedagogika bilim yurtlarida, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida atamalardan unumli foydalanilmaydi;

- rassom-pedagog mutaxassislarini tayyorlaydigan institut va bilim yurtlari o'qituvchilarining har biri o'z holicha atamalar tuzishadi. Bu esa betartiblikka va noaniqlikka olib boradi.

O'zbek tiliga o'girilgan tasviriy san'at atamalarining har xilligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Mutaxassis tarjimon bo'lmaganligi atamalarni shakl va mazmunini buzilishiga olib keladi.

2. Hozirgi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasida bir so'zga bir necha nomlar qo'llaniladi.

3. Atamalarining har xil bo'lishlik sababi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi izohli lug'atini bo'lmasligiga bevosita bog'liqdir.

Tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasini tartibga keltirish va izoh berish borasida o'zbek tilining o'ziga xos

xususiyatlari bilan terminologiyasining umumiy jarayonlaridan quyidagilarni qo'llash zarur:

1. Rus tiliga tarjimasiz o'tkazilgan baynalmilal atamalarni o'zbek tiliga ham tarjimasiz o'tkazish zarur. Masalan, akvarel, assimetriya, vitraj, galereya, gravyura, mozaika, ofort, panno, pastel, simmetriya, statuya, faktura, fon, estamp, eksterer, etyud va boshqalar.

2. Ba'zan rus tilidagi atamaga loyiq bo'lgan atama topilmasa, shu atamani tarjima qilmasdan o'z nomida qoldirilsa o'rinlidir. Masalan, vizirovanie (chamalash), palitra, zarisovka, ottenok, mazok (surtma), naturshik, axromatik, applikatsiya, janr, illustratsiya, xolst (mato) va boshqalar.

3. O'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarini tuzishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurdir. Ba'zan rus tilidagi bir so'zlik iborani o'zbek tilidagi bir so'z bilan ma'nosini yetkazib berish qiyindir. Shuning uchun ikki so'zni chiziq (—) orqali qo'yib yozish shart. Masalan, kontrast — qarama-qarshi, svetoten — yorug'soya, blik — yaltiroqdog', byust — gavda - haykal..

4. Atamalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda iloji boricha, ichki shaklini saqlash zarurdir. Masalan, rus tilidagi «ornament» atamasi faqatgina «gul» ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no «naqsh» iborasida qo'llanilayapti. To'g'rirog'i «ornament» atamasi «o'yma naqsh» yoki «naqshli gul» tarzida tarjima qilinishi mumkin. «Jivopis» atamaning ma'nosi «tirik, jonli» va «yozish» tushunchalarini bildiradi. Tahlil qilib qarasaq jonli yozish bilan rangli tasvirlash iboralari orasida uzoqlik borligi ma'lum bo'lib turibdi. Shu kabi ikki shaklning mazmunini qoldirgan holda tarjima qilib «rangtasvir» iborasi qo'llanilmoqda.

5. Atamalar bilan birgalikda tasviriy san'at asarlarini nomlarini ham to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mazmuniga ko'ra tarjima qilish zarurdir. Masalan, relyef — bo'rtma barelyef — past bo'rtma, gorelyef — baland bo'rtma. Yuqorida qayd qilingan prinsiplarni tasviriy san'atning lug'atini izohlash borasida qo'llanildi.

Tasviriy san'atning izohli lug'atini tuzishda atamalarni tarjima qilish, atamalarni tuzishdagi prinsiplarning qator lingvistik tahlillarining yordami juda zarurdir.

O'quvchi-yoshlarning tasviriy san'at savodxonligini o'zlashtirishda san'at tushunchalarini o'rgatishni o'rni muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at iboralarni o'quvchilarga o'rgatish uchun atamalarni spetsifik xususiyatlariga ko'ra bir necha shakllarga bo'ladi:

**Rangtasvirga oid atamalar:** akvarel, grizayl, axromatik, blik, (shu'la), garmoniya, kontrast, nusxa, refleks, panno, palitra, manzara, yorug'soya, tus, tempera, faktura, kolorit, fon, freska, yorug', eskiz, ranglavha (etyud), xolst, monumental, rangtasvir, mozaika, vitraj.

**Grafikaga oid atamalar:** avtogravyura, kitob grafikasi titul, frontispis, forzas, shtrix, kontur, sharj, ksilografiya, linogravyura, sgraffito, ottisk, rasm, plakat, siluet, estamp, emblema, ekslibris.

**Haykaltaroshlikka oid atamalar:** baland bo'rtma, bo'rtma, past bo'rtma, keramika, monumental haykal, obelisk, byust, yodgorlik, profil, simmetriya, haykaltaroshlik, haykal, statuya, sfinks.

**Bezakli amaliy san'atga oid atamalar:** assimetriya, afisha, glazur, gobelen, bezakli san'at, bezatuvchi, rassomchi, sahna bezagi, naqsh, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, simvol (nishona), faktura, eskiz, eksteryer, interyer, transporant, trafaret, simmetriya, keramika, fayans, kashtachilik.

**Kompozitsiyaga oid atamalar:** garmoniya, kontrast, kontur, nusxa, xomaki rasm, o'lcham, format, proporsiya (nisbat), simvol, simmetriya, joylashtirish, ritm, perspektiva, chiziq, nuqta, dog', ufq, old ko'rinishi, o'rta ko'rinishi, olis ko'rinishi, ko'rish markazi, dinamik kompozitsiya, stilistik kompozitsiya.

**San'at tarixiga oid atamalar:** antik san'ati, qadimgi dunyo san'ati, arkada, vandalizm, uyg'onish san'ati, rus san'ati, o'zbek tasviriy san'ati, bezakli amaliy san'ati, badiiy san'at, kapitell, klassik, statuya, sfinks, freska, qarama-qarshi tuslar.

**Yorug' – soya va ranglarga oid atamalar:** rangtasvirlik, yorug'lik, soya, tus, yaltiroq, dog', shaxsiy soya, tushuvchi soya, yarim soya, tus munosabati, ranglar nisbati, ranglar to'yinganligi, ranglar ochligi, kontrast (qarama-qarshi), kolorit...

**Tasvirlash vositalariga oid atamalar:** trafaret, akvarel, mo'yqalam, siqma bo'yoq, akvarel bo'yoq, moybo'yoq, xolst, plakat perosi, tush, guash, pastel, flomaster, format, vatman, stek, mastixin, etyudnik, palitra va hokazo.

**O'quv mashg'ulotlarga oid atamalar:** narsaning o'ziga qarab rasm chizish, mavzu asosida rasm ishlash, bezakli rasm ishlash, haykaltaroshlik, badiiy qurish-yasash, kompozitsiya, rangtasvir, rangshunoslik, tasviriy san'at haqida suhbat, borliq va san'atni idrok qilish, san'atshunoslik asoslari, qalamtasvir, san'at tarixi.

**Tasviriy san'at turlari va janrlariga oid atamalar:** rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, bezakli amaliy san'at, me'morchilik, animalistik janr, manzara, naturmort, maishiy janr, batal janri, tarixiy janr, mifologik janr.



**Rassomchilarga oid atamalar:** animalistik, akvarelchi, batalist, grafik, rangtasvirchi, bezakchi, marinist, ganchkor, naqqosh, portretchi, haykaltaroshchi, sahna bezovchi, san'atshunos, dizayner, kulolchi, modelyer.

Bunday tartibda atamalarni jamlash o'quvchilarni tushunishiga yengillik tug'diradi. Ayrim bir atamalar bir bog'liqlikda qo'llaniladi, ayrimlari esa barcha turlarida foydalaniladi. Masalan, kompozitsiyaga oid: «kompozitsiya», «joylashtirish», simmetriya, ritm, proporsiya hokazolar juda tez-tez qo'llaniladigan atamalar.

Dars jarayonida yangi iboralarni tushuntirish bilan bir qatorda yangi atamalarni rasm daftariga yozdirib borish maqsadlidir. Ta'lim berish jarayonidagi bunday foydali ishning natijasida o'quvchilarda so'z boyligi rivojlanib tasviriy san'atning qisqacha izohli iboralari yig'iladi. Bu esa hozirgi o'quvchilarga juda ham foydali. Sababi tajriba shuni ko'rsatadiki rasmni ko'ngildagiday chizadigan o'quvchilar ko'plab atamalarni izohini bilishmaydi. Masalan, reproduksiya, illustratsiya kabi atamalarni farqini ajrata olmaydi. Shu borada o'z fikrlarini tushuntirishga so'z boyligi etishmaydi. Bular, ayniqsa, tasviriy san'atning badiiy asarlari bilan tanishtiradigan suhbat darslarida tez-tez uchrab turadi.

O'quvchilarni so'z boyligini kengashtirish, milliy g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirish, tasviriy san'at iboralarni o'zlashtirish masalalarini yechishda izohli atamalarning foydasi juda kattadir. Lekin hozirgi kunda umumta'lim maktablar uchun tasviriy san'atning izohli lug'ati yo'q va yaratilmagan. Bu kabi masalalarni hal qilish mutaxassislar oldida turgan juda muhim vazifalardan biridir.

## **5.2. Tasviriy san'at darslarida etimologik tahlil<sup>1</sup>**

Tasviriy san'atni o'rgatish jarayonida boshqa xalqlardan kirib kelgan atamalarni o'quvchilarga tushuntirilishi badiiy bilim berishda muhim o'rinni egallaydi. Tasviriy san'atdagi ko'pchilik atamalar chet el tillarining asoslaridan olingan. Shuning uchun atamalarning ma'nosini o'quvchilar mustaqil ravishda o'zlashtira olmaydi va qiyinchilik tug'diradi. Shular sababli dars jarayonida atamalarning ma'nosini tahlil qilish zarurdir.

O'qituvchilar tasviriy san'atga oid atamalarni qaysi tillardan kirib kelganini chuqur o'zlashtirsa, san'at asarlarini mustaqil tahlil qilib, o'z tushunchalarini o'quvchilarga yetkazishda qiynalmaydilar.

---

<sup>1</sup> S. Abdirasilov. Tasviriy san'at darslarida etimologik tahlil. T.: Xalq ta'limi. №2, 1997. 116-bet

Har bir atama biron bir tushunchani anglatadi. Atamalarning etimologik asosida tahlil berish san'atni idrok etish, tushunchalarni o'zlashtirishda yordam beradi.

Etimologiya so'zi grekcha «etimon» – to'g'ri, so'zning asosiy ma'nosi va «logos» – ilm degan so'zlarning bir izohidan tuzilgan.

Atamalarga etimologik tahlil yuzasidan tasviriy san'at o'qituvchisining nutqi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- a) atamaning atalishi bilan yozilishini izohlab berish;
- b) so'zning paydo bo'lishi to'g'risida suhbatlashish;
- v) atamaning xorijiy va o'zbek tilidagi ma'nosini ochib berish.

Tasviriy san'at atamalarining tahlil usullari quyidagicha bo'lgani maqsadga muvofiq. «Akvarel» – lotincha «adia» («suv» so'zidan olingan. Suvda eritib yuqadigan bo'yoqni va shu bo'yoq bilan tasvirlangan asarlarni «akvarel» deyiladi. Animalistlar – hayvon va qushlarning rasmini tasvirlash bilan shug'ullanadiganlar. Bu lotincha «animal» (hayvonot) so'zidan olingan. Vitraj – turli rangdagi shisha oyna bilan derazalarga naqsh yoki tasvir ishlash. Fransuzcha «vitre» – so'zidan olingan bo'lib, «deraza shishasi» ma'nosini beradi. Gravyura – fransuzcha «graver» so'zidan olingan. Biron bir buyumni o'yish, naqshlash ma'nosini bildiradi. Grafika – oddiy qora qalamda, tushda yoki biron bir buyumni yuziga chizib tushirilgan tasvir. Lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «rasm chizaman» degan ma'noni anglatadi. Interyer – uyning ichki ko'rinishini badiiy bezash. Fransuzcha «ichki» degan ma'noni bildiradi. Kompozitsiya deganda badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi va ularning muvofiqligini tushunamiz. Kompozitsiya lotincha «kompositio» so'zidan olingan bo'lib, «tuzilish», «qurilish» degan ma'noni bildiradi. Marinist – dengiz ko'rinishlarini tasvirlovchi rassom. Marinus (dengiz) degan so'zdan olingan. Naturmort – kundalik turmushdagi turli buyumlar, sabzavot va mevalar, gullar, hayvon va qushlar tasvirlangan asarlardir. Naturmort fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Proporsiya – narsa o'lchamlarining o'zaro nisbatini (munosabatini) bildiradi. U lotincha «proportino» – «nisbat» degan ma'noni bildiradi. Siluet – biron bir narsaga yorug'lik tushishdagi soya ko'rinish tasviri. Bu esa fransuz Etyen de Siluet degan odamning ismi bilan nomlangan. Freska – suvoq qilingan devor ustiga to'g'ridan-to'g'ri ezilgan bo'yoqlar bilan ishlangan tasvir. U Italiya xalqining «fresko» so'zi bo'lib, «yangi ishlangan» degan ma'noni bildiradi.

O'qituvchi dars berish jarayonida qo'llaniladigan atamalar ma'nosini yorituvchi ko'rgazmali qurollarni sinf doskasiga osib qo'yadi. Tushunilishi murakkab bo'lgan ayrim atamalar, masalan, «perspektiva» kabi tushunchani sinf taxtasida qo'shimcha rasmlarni chizib ko'rsatishni talab qiladi.

Atamani tahlil qilish jarayonida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish ham samarali vositalaridan biridir. Masalan, impressionistlar to'risida fikr yuritaylik. XIX asarning ikkinchi yarmida Fransiyada o'z tasvirlash uslubiga ega bo'lgan rassomlar oqimi paydo bo'ldi, ular odatdagi rasmlarni ustaxonada emas, balki tabiat qo'ynida bo'lib, olgan his-tuyg'u va taassurotlarini bevosita aks ettirishga harakat qilishdi. Xuddi shu rassomlarning asarlari birinchi marotaba Parijda ko'rgazmasi namoyish qilinganda, ularga «impressionist»lar degan nom berishdi. Fransuzcha «impression» - «his-tuyg'u, taassurot» degan ma'noni bildiradi. Atamalarning paydo bo'lishini yoritib berish maqsadida o'qituvchining mazmunli suhbatini o'quvchilarni badiiy bilim tushunchalarini shakllanishiga yordam beradi.



E. Kruglikova.

M. Cvetayeva portreti (siluet).

Suhbat darslar jarayonida «siluet» tushunchasidan ham foydalaniladi. Siluet atamasi odam ismi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etyen de Siluet ismli kishi XVIII asrda Fransiyada moliya vaziri bo'lgan. O'sha davrdagi bir rassom vazirning rasmini chizadi. Rasmda odam tasviri odatdagidek emas, balki soya sifatida qora bo'yoq bilan chizilgan. Shu vaqtdan boshlab rasm chizishning ana shu uslubini «siluet», ya'ni vazirning ismi bilan nomlangan. Mana shunday atamalarni tahlil qilish borasida kerakli suhbatlar o'quvchilarning qiziqishini o'stirib, dunyoqarashini kengaytiradi.

### 5.3. Tasviriy san'at atamalarini o'rgatish metodikasi

Tasviriy san'at darslarida o'qituvchilar amaliy ish bilan bir qatorda nazariy bilimlarni ham o'zlashtirishi lozimdir. Boshqa fanlar singari tasviriy san'atning ham nazariy asosi bo'lgan o'ziga xos tushuncha va atamalar majmuasi mavjud. Hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri, bu mavjud atamalarni to'g'ri o'qitishdan iborat.

Pedagogik amaliyot o'tkazish jarayonida tasviriy san'at fanida uchraydigan atamalarni qo'llash va ularni chuqur o'zlashtirish yuzasidan ayrim tajribalar o'tkazildi. Masalan: «kitob grafikasi va illustrasiyasi» mavzusida suhbat o'tkazilganda o'quvchilar kitob haqida keng fikrga ega bo'ladilar. O'qituvchi 5 - sinfni «Jahon tarixi», T. Mahmudovning «Abdulhaq Abdullayev» kitoblaridan samarali foydalanib, o'quvchilarni tanishtirdi. Qadimda kitob muqovasi teri va temirdan ishlanganligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Qattiq muqovani uski qismi qog'ozdan tayyorlangan bezakli ust muqova bilan qoplangan, buni «supermuqova» deyiladi. Ustmuqova bezakli bo'lib, o'z mazmuniga mos tasvirlar chiziladi, muallifning ismi sharifi va kitobning nomi ham yoziladi. Masalan: T. Mahmudovning «Abdulhaq Abdullayev» nomli kitobining supermuqovasi shu tarzda bezatilgan. O'quvchilarga kitobning supermuqovasini ko'rsatib, uning chapki bet tomoni ichki beti bo'lishi, kitobning ichki o'ng tomoni esa birinchi betlardan hisoblanishi tushuntiriladi. Bu betni "forzas" deyiladi. Forzas kitobning so'ngida ham bo'ladi. Ayrim paytlarda oppoq qog'oz turida yoki turli rangda bo'lishi ham mumkin. Kitoblardagi forzas betlariga mazmuniga mos rasmlar ham tasvirlangan bo'ladi. So'ng kitobini varaqlaymiz. Chap tomonidagi varaqda naqshlangan bezaklar tasvirlanadi va "frontispis" deyiladi. "Frontispis" – kitobdagi eng mazmunli g'oyaning illustrasiyasi yoki reproduksiyasi. Illustratsiya bu ma'lum bir mavzuga ishlangan oq qora tuslardagi grafikaviy – badiiy asar. Ular ko'pincha tush bilan bajariladi. Reproduksiya esa—ma'lum tasviriy san'at asarlaridan chop etilgan nusxasi. Masalan, T. Mahmudovning "Abdulhaq Abdullayev" nomli kitobini frontispis betida san'at asarining reproduksiyasi berilgan. Shu kitob betida rassomning portreti tasvirlangan. Titul varog'ida esa kitobning nomi, muallifning ismi sharifi, pastki qismida nashriyoti, shahri, chop etilgan yili yoziladi.

Agarda kitob bir necha bo'limlardan iborat bo'lsa, har bir bo'limlar oldida uning sarlavhasi va raqami hamda rasmi tasvirlangan

varaқ bo'ladı. Bunday varaқ beti – «shmustitul» deyiladi. Kitob matni boshlanishi yoki har bo'limining oldidan qo'yiladigan naqshli yoki sujetli rasmni «zastavka» – bosh bezak deyiladi, shu bo'limning so'ngida qo'llaniladigan badiiy bezaklar esa «konsovka» – so'nggi bezaklar deyiladi.

Bu lug'atning barchasi – kitobning asosiy elementlari. Qanday kitob bo'lmasin illustratsiyalar bilan bezatiladi. Shu ishlarni bajaradigan badiiy rassom «rassomchi-illustrator» deyiladi. Kitobdagi rasmlar ham dastgohli asar kabi ijodiy asarlar qatoriga kiradi. Kitobni badiiy illustratsiyalashda uning estetik salmog'ini ko'tarish va muallifning fikrini o'quvchilarga etkazishdir. V. Kaydalovning «Qirq qiz», T. Sa'dullayevning «Go'r o'g'li» dostonlariga ishlagan illustratsiyalari bunga misol bo'la oladi.

Kitob grafikasi to'grisida tushuncha berilgandan keyin, o'quvchilarga o'zlari sevib o'qigan badiiy adabiyotlarning muqovasini tasavvurdan chizdiriladi. Bu ish jarayonini bir necha bosqichlarga bo'lib o'tkazamiz.

Birinchi bosqichda kitob eskizlarining bir necha variantlari ishlab chiqiladi. O'quvchilarga qog'oz yuzasida har bir tasvirni to'g'ri joylashtirishda yordam beriladi, yozuv shriftlarining turlari yodlariga tushiriladi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan variant asosida ko'rinishlarni rasm qog'ozlariga kattaroq qilib chizdiriladi. Rasmlar va shriftlarni bir-biriga bog'liq bo'lishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Uchinchi bosqichda esa tasvirlar bo'yoq bilan bo'yaladi.

Dars jarayonida yangi iboralar tahlil etiladi va ularni rasm daftarlariga yozdirilib boriladi.

So'nggi yillarda nashr qilingan metodik adabiyotlarda o'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarining qo'llanilishida har xillik mavjud. Bu ahvol esa atama ma'nosini tushunishda anglashilmovchilikka olib keladi.

Ayrim paytda tekislik yuzasidagi tasvirning barcha ko'rinishini «rasm» deyiladi. «Reproduksiya», «Illustratsiya», «Grafika», «Kartina» atamalarini ham «rasm yoki rasm san'ati» atama bilan atashadi. Ma'lumki tasviriy san'at bajarish texnikasiga, bajarish imkoniyatlariga qarab rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at turlariga bo'linadi. Atamalardagi har xillikka yo'l qo'yishning sabablaridan biri atamalarning ichki ma'nosini yaxshi bilmaslikdir. Shuning uchun dars jarayonida va sinfdan tashqarida to'garak mashg'ulotlarda o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlab borish zarur.

Ta'limning bunday shakl va yo'nalishlarida o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, g'oyaviy-estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablari uchun tasviriy san'atning mukammal izohli lug'ati yaratilmagan. Bu kabi masalalarni hal etish mutaxassis-o'qituvchilar oldida turgan juda muhim vazifalardan biridir.

#### 5.4. Tasviriy san'at asarlarini idrok etish

Idrok qilinayotgan tasviriy san'at asari taniqli musavvir, O'zbekiston xalq rassomi Malik Nabiyevning "Eski maktab" kartinasiga tahlili.

"Eski maktab" rasmini tomosha qilib, orqa tarafdagi tokchalardan birida turgan jom va obdasta e'tiborni tortishi tabiiydir. Dars boshlanmasdan oldin shu buyumlardan foydalanilgani ma'lum. Islom dini pokizalikka o'rgatgan. Tamoilimizga ko'ra arabcha yozilgan kitoblarni o'qishdan avval qo'l yuvilgan. Maktab, masjid, madrasa, quroatxonalar, qorixonalar kabi joylarga borilganda tahoratsiz kirilmagan. Bundan tashqari, qo'lni yuvib, so'ng o'qilgan. Malik aka "Eski maktab" asarini yaratishdan oldin shu kerakli detallarga e'tibor bergan.

Musavvir bu kartinani yaratishda shoshilmay, puxta o'ylab, uzoq yillar mobaynida nihoyasiga etkazgan. Bolalar qiyofasini, muallim-murabbiylar qanday ko'rinishlarda bo'lishini Malik Nabiyev yaxshi biladilar. "Eski maktab" asarida har bir bolaning bir-birini takrorlamagan holatlari, ko'rinishlarini, domla qiyofasini zavq bilan tomosha qilishimiz boisi musavvirning ko'p yillik tajribalari natijasidan ekanligiga shak shubha bildira olmaymiz.

Malik Nabiyev yaratgan "Eski maktab" boshqa eski maktab asariga sira o'xshamaydi. Sababi musavvirimiz asarida haqqoniylik o'z aksini topadi. Hamma bola boshida o'zbek do'ppisi. Jajjigina jiyakli gilamkashta, chamandagul, marg'ilon nusxa do'ppili bolalar, hatto salla o'rgan bola ham o'tiribdi. Milliy kiyimlari yoshlariga ko'ra tikilgan bo'lib, nihoyatda yarashgan. Bolalarda sabr, odob, ilm olishga moyillik, fikri teranlik, andisha kabi o'zbekona xislatlar sezilmoqda. Ular cho'kka tushib, bo'yra ustida o'tirishibdi. Oldilarida esa darsliklar qo'yiladigan hozirgi partani eslatuvchi yasama, pastakina kursi. Domlada aqlu zakovat, salobat, ko'rkam ilmlilarga xos ko'rinish — savlat, donishmandlarga xos fikrlash kabilar aks etib turishi, lavh ustidagi kitob, yonlaridagi choynak, choy quyilgan piyola yanada taassurotni oshirib yuboradi. Domla hurmat tariqasida to'shalgan gilamga yozig'lik ko'rpachada shogirdlari kabi cho'k tushib, bolalarni darsdan oldin tartibga chaqirib o'tiribdi.



M.Nabiyev. Eski maktab.

...Boshda salla, egniga to'n kiygan, o'ziga yarashqli ixchamgina oppoq soqolli ko'rinishda badjahil domla bolalarga dars o'tmoqda. Kimdir kechikibroq qolibdi shekilli, u gunohkorlardek kechirim so'rab, qo'li ko'ksida eshik oldida qaddi egik, domladan javob kutganidek, odob bilan tik turibdi. Dars endi boshlangan. Bolalar "Xaftiyak"ni mutolaa qilishmoqda. Kimdir shu payt odobni buzdi. Domlanning jahli chiqib, qo'liga xipchinini olib, tartibni buzgan bolaga qaratib, ilmlil bo'lish haqida unga tushuntirayotganlari aniq.

Maktab hayotini kuzatib, savodxonlik xususida xalqimizni o'ta savodli qilgan eskicha maktablar masjid, madrasalar edi. O'sha davrda "Qur'oni Karimni" o'qiy olmagan bolalar nihoyatda kam topilar edi. Musavvir Malik Nabiyev shu rasm xususida shunday deydi "Domlanning oldilaridagi "Haftiyak"da jimgina o'tirgan bola bu men", — bir oz sho'xroq edim, va lekin, o'qishga qiziqardim.

Eski shahardagi xususiy eski maktabda ikki yil o'qidim. Hisob, jo'g'rofiya fanlari ham o'qitilardi. Asosan, "Haftiyak" diniy-arabcha kitobni o'qirdik. Intizom nihoyatda qattiq edi. Tozalik, axloq-odobimiz har kungi dars oldidan nazorat qilib turilardi.

Domla barvaqt kelib maktab eshigi oldiga bir-bir yarim qarichcha keladigan yo'g'onroq tayoqni qo'llariga ushlab kimni tirnogi o'sgan bo'lsa, tepaga qaratilgan barmoqlar uzra urganlaridan zirqirardi. Bu o'ziga xos jazo bo'lib, tirnoqni o'stirib yurishdan qo'rqrar edik. Hatto, oyoq tirnoqlarimizgacha tekshirilardi. Bolalar eski kiyimlarida yurishsa-da ozodalikka odatlanishgandi. Tayoqqa kelsak bu ham tartib-intizom uchun o'ziga xos "qurol" bo'lib, betartiblik qilgan bolani duch kelgan joyiga urilmas, faqat oyoq-qo'llari, boshidan boshqa elkalariga shu tayoqni eslatuvchi ikki quloch undan ham uzunroq chamasidagi tol, tut, behi daraxtlaridan olingan novda-xipchinlar vahimali, do'q-po'pisalar aralash tushib turardi.

Eski maktab hayoti haqida Malik aka qolgan gaplarini davom ettirib: "Domlamiz ro'paralaridagi tugunni shu kuni men olib keldim. Odatga ko'ra har payshanbada o'quvchilar shunday non, qatlama, shirinliklar solingan tugun uning bir burchagiga o'ralgan aqcha bilan kelishardi", — deb izoh berib o'tdilar.

Rasm o'zbekona ruhda fayzli, ancha osoyishta tasvirlangan. Rangtasvir o'ta mahorat bilan qiyomiga yetkazilgan. Tanlangan mavzu tarixiy asar tuzilishi (kompozitsiyasi) ranglar majmuasi qorishmasi bir-biriga mutanosib, uyg'unlashib ketgan. Xona ko'rinishida bo'lsada nur orqadan oldinga yaqinlashib tushayotgan soyalarni yoritib, aksincha, orqaga chekinmayapti. Old taraf tobora oydinlashib yorqinlashmoqda.

Rassom Malik Nabiyev Vatanimiz tarixini chuqur o'rganib, o'z ko'zi bilan ko'rib yashagan yuksak mahorati mo'yqalamining kuchi tufayli tarix saboqlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvoffiq bo'lgan.

O'zbekiston xalq rassomi, professor va akademik musavvir darajasiga ko'tarilgan Malik Nabievning "Eski maktab" rasmini 1990-yilda Toshkent Davlat Universitetining sharqshunos olimi Shoislom Shomuhammedov iltimosiga ko'ra sotib olinib, oliy o'quv yurti muzeyiga qo'yilgan.





## 6-bob. TASVIRIY SAN'AT METODIKASIDAN KURS ISHI

### 6.1. Kurs ishining tuzilishi va ahamiyati

Tasviriy san'at metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash va uni bajarish bilan bog'lik bo'lgan umumiy masalalarni ko'rib chiqamiz.

Kurs ishi san'at fakulteti talabasi tomonidan o'qituvchining bevosita rahbarligida tayyorlanadi va ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: birinchisi, zarur adabiyotlarni puxta o'rganib chiqib, ularning mazmunini yoritish bo'lsa, ikkinchisi esa maktab, kollejdagi pedagogik amaliyot davrida kuzatish o'tkazib, natijasini umumlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Kurs ishi kompyuterda terilib, zarur illustratsiyalari bilan bezatilib, kafedraga himoya qilish uchun topshiriladi.

Kurs ishini yozishda talaba adabiy va noyob materiallarni tahlil qilishga o'rganib, tasviriy san'at metodikasi bo'yicha so'nggi yillarda erishilgan muhim yangiliklar bilan tanisha boradi. Eksperimentli ilmiy tajriba xarakteridagi kurs ishi bajarish jarayonida esa ilmiy tadqiqot usullarini o'rganib boradi. Unda mustaqil tahlil qilish, tadqiqot natijalarini bayon qilish, xulosalar chiqarish va amaliy takliflar kiritish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Kurs ishi quyidagi tartibda bajarilishi kerak:

1. Mavzu tanlash.
2. Mavzu rejasini tuzish.
3. Tanlangan mavzuning xususiyatlarini o'rganish.
4. Tadqiqot metodlari va vazifalarini aniqlash.
5. Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzish.
6. Pedagogik amaliyot davrida mavzu bo'yicha kuzatish o'tkazish, to'plangan ma'lumotlarni tartibga solish, xulosalar chiqarish.
7. Tayyorlangan ish rahbar tomonidan ko'rib chiqiladi, ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etiladi hamda kompyuterda terilib, taqriz uchun kafedraga topshiriladi.
8. Kurs ishini himoya qilish.

Himoya qilish uchun talaba kurs ishining ikkinchi nusxasi va taqrizni ilmiy rahbariga taqdim etadi. Ishning birinchi nusxasi kafedrada qoladi.

Himoyaga tavsiya etilmagan talaba qaytadan ishini to'ldirib tuzatadi, taqrizga beradi va qayta himoya qiladi.

## **6.2. Kurs ishiga qo'yiladigan umumiy talablar**

Himoyaga qo'yiladigan kurs ishi kompyuterda terilib muqovalanishi kerak. Kurs ishining titul varag'ida oliy ta'lim, fakultet va kafedra nomi, mavzuning nomlanishi, ilmiy rahbar va talabanning ismi-sharifi, himoya yili ko'rsatiladi. Keyingi sahifasida mavzu rejası, kirish, mavzuning dolzarbliligi, uning maqsad va vazifalari, taxminiy farazi, izlanish metodlari va uning natijalari hamda ish-ning oxirida xulosa, amaliy tavsiya, takliflar va foydalanilgan ada-biyotlar ro'yxati bo'lishi kerak. Mavzuga oid illustratsiyalar, ya'ni jadvallar, rasm, grafik ishlar matnning kerakli joyida yoki oxirida ilova tarzida adabiyotlar ro'yxatidan so'ng berilishi mumkin.

Kurs ishining hajmi, uning xarakteriga izlanayotgan mavzuning xususiyatiga, adabiyotda yoritilish darajasiga, ishning maqsad va vazifalariga, ilmiy tadqiqot usullariga, shuningdek, to'plangan materialni izlanuvchi qanchalik aniq ravshan yoritma olishiga bog'liq. Ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, kurs ishi matni kompyuterda terilganda 25-30 betda mufassal bayon etiladi.

Kurs ishida stilistik va orfografik xatolar bo'lmasligi kerak, aks holda u bahoning pasayishiga olib keladi. Kurs ishining barcha betlari raqamlangan bo'lishi kerak. Faqat titul va mavzu rejasiga tartib raqami qo'yilmaydi. Ammo ular ham umumiy hajmda hisobga olinganligi uchun «Kirish» 3-betdan boshlanadi.

### **6.2.1. Mavzu tanlash**

Kurs ishi uchun mavzular banki kafedrada mavjud bo'lib, ular fakultet ilmiy - metodik kengashida tasdiqlanadi. Mavzular bankini tuzishda pedagogika, psixologiya va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha dunyoda erishilgan yangi fan yutuqlari, yangiliklari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar va pedagogika kolleji dasturlarining talablari hisobga olinadi.

Har bir mavzu puxta tuzilgan bo'lib, badiiy ta'lim-tarbiyaning muhim jihatlarini yoritishga qaratilishi kerak. Har bir talaba mavzu tanlashda o'z imkoniyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqishi hamda

bo'lg'usi ilmiy rahbari bilan albatta maslahatlashishi kerak.

Mavzu bo'yicha ishlash jarayonida talaba mustaqil fikrlay olishi, zarur adabiyotlarni tanlab, uni tahlil qilishi, tadqiqot usulini belgilashi, tajriba va kuzatish ishlarini o'tkazishi va yig'ilgan natija ma'lumotlarni tartibga solib, izchillikda bayon qila olishi kerak. Zarur holatlarda mavzuni o'zgartirish kafedraning qarori bilan amalga oshiriladi.

### 6.2.2. Kurs ishini rejalashtirish

Har bir kurs ishi reja asosida bajariladi. Rejaning puxta tuzilishi kurs ishining mazmunli bo'lishiga va qismlari o'rtasidagi mantiqiy uzviylikka bog'liq. Bunday tuzilgan reja ishning maqsadga muvofiq olib borilishiga va muddatida bajarilishiga yordam beradi.

Kurs ishining namunaviy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kirish — mavzuni asoslash va uning muhimligini isbotlab berish.

2. Asosiy va maxsus adabiyotlar tahlili — masalaning nazariyasi va tarixi yoritiladi va uning qay darajada o'rganilganligi bayon etiladi, shu mavzu bo'yicha hali yoritilmagan yoki o'rganilishi zarur bo'lgan muammolar ko'rsatiladi hamda aniq vazifalar belgilanadi.

3. Tekshirish metodlari — eksperiment o'tkaziladigan joyi, vaqti ko'rsatiladi, o'quvchilarni kuzatiladigan va o'rganiladigan xususiyatlari belgilanadi hamda to'plangan ma'lumotlarni ishlab chiqish usullari ko'rsatiladi.

4. Eksperiment natijalari — alohida bobda asosiy qism bo'lib, yig'ilgan ma'lumotlar bayon etiladi. Asosiy qismda muallif mustaqil ravishda olib borgan tadqiqotining yakuniy bayonini yoritadi. Bu qismini yozishda tadqiqot ishining borishi, unda qanday usullar qo'llanganligi va hokazalar ko'rsatiladi. So'ng bu tadqiqotdan olingan natijalar tahlili beriladi.

5. Xulosalar keltirilgan ma'lumotlar umumlashtiriladi va hayotga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

### 6.2.3. Adabiy manbalarni o'rganish

Adabiyotlarni o'rganish mavzu ustida ish olib borishning dastlabki bosqichi bo'lib, qo'yilayotgan masalaning, qay darajada o'rganilayotganligi va yana nimalar qilish kerakligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi hamda kurs ishining asosi, poydevori hisoblanadi. Faqat maxsus adabiyotlarni atroflicha o'rganish orqali mavzu ustida

ish olib borishning yo'nalishini belgilash, uning o'rganilish darajasini va kelgusida ilmiy tekshirish o'tkazish uchun qanday imkoniyatlarga egaligini aniqlasa bo'ladi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida ayni shu masalada nimalar ma'lum va nimalar noma'lum ekanligi, nimalar ma'lum bo'lsa ham hali yetarli darajada to'liq va aniq isbotlanmagan, ma'lum narsalardan nimalar eskirib qolganligini bilib olish kerak. Bu ma'lumotlar mavzuni aniqlash va o'zi o'tkazadigan ilmiy tadqiqotning hajmini belgilash uchun zarur.

Maxsus adabiyotni o'rganish, odatda, kurs ishi bajarishning boshidan oxirigacha davom etadi. Adabiyotlar ro'yxatini tuzish vaqtida kitoblarning nomi, mazmuni ko'rsatilgan ro'yxat bibliografiyadan foydalanish lozim.

Kitob bilan ishlashda quyidagi tartibga rioya qilish tavsiya etiladi:

a) kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili va nashriyatini aniqlash;

b) so'zboshi, kirish qismini o'qib, muallifning maqsadi va o'z oldiga qo'ygan vazifasi aniqlanadi;

c) mundarijasiga qarab kitobning hamma boblarini o'qib chiqish zarurmi yoki yo'qligi aniqlanadi;

d) kitob qaysi mutaxassislar uchun mo'ljallanganligi belgilanadi.

Kitob yoki maqolaning mazmuniga qarab, u bilan ishlash usuli aniqlanadi:

a) kitobni ko'zdan kechirish — qiziqarli kerakli material bilan tanishish, mundarijasi, rasmlari, chizmalarini sinchiklab o'rganish;

b) kitobni bir boshdan o'qish — shoshmasdan, kerakli joylarga belgi yoki savollar qo'yib o'qib chiqish;

c) puxta o'zlashtirish — asar haqida qisqa ma'lumot yozish, konspekt tuzish maqsadida uning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganish.

Adabiyotlarni o'qiganda talaba asosiy fikrini tezlik bilan aniqlab olishga, uni tanqidiy idrok etishga, o'z g'oyalari bilan bog'langan qisqa, lekin aniq qilib konspektlab olishni bilishi kerak.

Qulaylik bo'lishi, to'plangan materialni bir tizimga solish va keyinchalik undan foydalanish mumkin bo'lishi uchun har xil ko'chirmalar va belgilar qilinadi. Bular alohida qog'oz varaqalarining faqat bir tomoniga yoziladi. Bu ko'chirmalar keyin alohida papkalarga bajarilayotgan kurs ishining rejasida ko'rsatilgan boblar va bo'limlarga qarab ajratib saqlanadi. Xuddi shu tariqa kurs ishi muallifi adabiyot o'qishi mobaynida paydo bo'lgan o'z fikr-mulohazalarini ham yozib borishi va foydalanish mumkin bo'lgan bob

yoki bo'limni ko'rsatib ketishi kerak.

### 6.3. Tadqiqot metodlari

#### 1. Pedagogik kuzatishlar

Kuzatish o'tkazishning asosiy vazifasi izchillik bilan maqsadga muvofiq holda pedagogik tajriba oshirish va uni o'rganishdir. Bu metod o'quvchilarga badiiy ta'lim-tarbiya berishni, turli muammolarini hal qilishda keng foydalaniladi. O'quvchilar tomonidan turli materiallarning imkoniyatlarini va ishlatish yo'llarini o'rganish jarayoni, darslarning mazmuni, uning o'quvchilar uchun qay darajada qiziqarli ekani, darsda ta'limning qaysi usul va uslublaridan foydalanish lozimligini kuzatishga kiradi va hokazo.

Pedagogik kuzatishlar maxsus tayyorlanadi va o'z ichiga:

a) odatdagi, ya'ni har doim o'tkaziladigan tasviriy san'at darsini kuzatish;

b) maxsus tashkil etilgan, oldindan tayyorgarlik ko'rilgan, zamonaviy texnologiyalar bilan o'tkaziladigan alohida darslarni kuzatishni oladi. Bunda pedagogika, psixologiya fanlarining yangiliklari ham hisobga olinadi.

#### 2. Eksperiment

Ilmiy tadqiqot o'tkazish vaqtida o'rganilayotgan hodisani kuzatish natijalari yozib olinadi va zarur bo'lsa, uni yana xuddi o'sha sharoitda takrorlash mumkin bo'ladi. Eksperiment sun'iy yaratilgan sharoitda ham, tabiiy holatda ham o'tkazilishi mumkin.

Eksperiment o'tkazish uchun tadqiqot talabiga muvofiq:

1) o'tkazish rejasini tuzish;  
2) nazorat va eksperimental guruhlar, sinflar tanlash;  
3) darsga tayyorlanish konspekti, ko'rgazmali qurollar, o'quvchilar uchun rasm qog'ozi, bo'yoqlar, mo'yalamlar, qalam va hokazo;

4) darsni kuzatish;  
5) o'quvchilarning ishlarini yig'ib olish va baholash;  
6) natijalarni bayonnomaga kiritish;  
7) to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirish;  
8) o'tkazilgan kuzatish yuzasidan xulosalar chiqarish lozim bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish jarayonida to'plangan materialni matematik yo'l bilan hisoblash yoki jadval usulida tasvirlash talab

etiladi. Har xil jadval, rasm va diagrammalar chizish, to'plangan materialni tahlil qilishga qulay sharoit yaratadi. Bunda ikki sinfda o'tkazilgan kuzatish natijasi jadval orqali ko'rsatiladi va ular bir xil kattalikda, bir xil belgilar bilan bajariladi.

### Nazariy tahlil va umumlashtirish

a) adabiyotlardan olingan ma'lumotlarning tahlili;  
b) hujjatli dalillarni — dars rejaları, o'quvchilar tomonidan ishlangan rasmlar, darslarning qarorlari, hisobotlar, so'rovnomalar, suhbatlar va savol-javob natijalarining tahlili va umumlashtirish.

### 6.4. Kurs ishi matnini yozish

To'plangan material bayon etilganda ko'rilayotgan masala va dalillar izchillik bilan hisobga olib borilishi kerak. Kurs ishida berilgan ma'lumotlar maxsus ilmiy bilimlar darajasida bo'lishi kerak. Ko'rilayotgan masalaning asosiy mazmunini yaqqol ochib berish talab etiladi. Har bir murakkab masalaning tugallanishida, albatta, qisqacha xulosa bilan yakunlanadi. O'z izlanishlarini bayon qilish chog'ida ashyoviy dalillarga tayanish raqam, jadvallar va hokazo kerak. Rasmlar ilova qilingan matn, odatda, qisqa va tushunarli bo'ladi.

Ishda o'z ixtiyori bilan so'zlarni qisqartirish mumkin emas. Manbalardan ko'chirmalar keltirilsa, uning qayerdan olinganligi kurs ishining ayni shu betida, pastki qismida, aniq va to'liq holda beriladi.

Kurs ishi birinchi shaxs, ko'plikda yoki noma'lum shaxs nomidan ko'rilgan, yozilgan, qabul etilgan va hokazo yozilgani ma'qul.

Kiritilgan taklif va mulohazalar muallifning shaxsiy kuzatishlari bilan yoki adabiyotlardan olingan ma'lumotlar asosida quvvatlansa, yaxshi bo'ladi. O'rganilayotgan masala yuzasidan turli fikrlarning o'xshashlik va farqlarini aniqlab, taqqoslab borish juda muhim va ahamiyatlidir.

Bunda bir-biri bilan uzviy bog'lanishda bo'lgan hodisalar taqqoslanishi kerak. Taqqoslashni bir xil belgilar bo'yicha yoki bir xil yo'nalish bo'yicha o'tkazgan ma'qul. Masalan, bir sinfdagi o'quvchilarning o'zlashtirishini, ularning avvalgi bilim darajasi bilan qiyoslasa bo'ladi.

Ba'zi adabiyotlarda ko'rilayotgan masalaga nisbatan turli mu-

nosabatlar uchraydi. Bunda yuqoridagi fikrlarni tahliliga tayangan holda talaba, o'z izlanishlari natijasi, shaxsiy qarashlarini ifodalashi mumkin. Bunday mustaqil fikr yuritilishi kurs ishining qimmatini oshiradi va bahosini ko'taradi.

Har bir bobni, albatta, yangi betdan boshlab yozish talab etiladi. Hamma bob va bo'limlarni yozishda ularning nomlanishini ko'rsatish kerak. Kurs ishining matni qog'oz varag'ining bir tomoniga chetidan o'z mulohazalarini bildirish uchun joy qoldirib yoziladi.

Tajriba natijalarini dalillar bilan isbotlash uchun muallif o'z fikr-mulohazalarini jadval, fotosurat bilan to'ldiradi. Har bir illustratsiya o'z nomiga ega bo'lib, qo'shimcha yozuvlarsiz tushunarli bo'lishi va tartib bilan raqamlanishi kerak. Masalan, «1-rasm» yoki «1-jadval». Kurs ishi mavzusiga mos holda rasmlar oq-qora yoki rangli, turli texnikalarda bajarilgan bo'lishi mumkin, lekin ular badiiy jihatdan yetuk bo'lishi shart.

Kurs ishi matnini yozishda uning mazmuniga alohida e'tibor berish lozim. Juda qiziqarli fikrlar keltirilgan kurs ishi ham tushunarsiz va qo'pol xatolarga yo'l qo'yib yozilgan bo'lsa, o'z qiymatini yo'qotadi. Matnda ortiqcha so'zlar va jumlar bo'lmasligi, muallifning fikri aniq, ravon yoritilgan bo'lishi talab etiladi. Ikkinchi darajali masalalar tafsilotiga berilib ketib, matnni ortiqcha maydalashtirib yuborish yaramaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun qo'lyozmani qayta-qayta o'qish, undagi kamchiliklarni tuzatish, o'zgartishlar kiritish kerak bo'ladi. Nisbiy tugallangan fikrni bildiradigan jumlar matnda alohida yangi qatordan yoziladi. Matnni yozishda umumiy qabul qilingan termin (atama)lardan foydalanish, yangi so'z ishlatilsa unga izoh berib borish zarur.

Qo'lyozma ustida ish olib borishning muhim bosqichlaridan biri xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berishdir. Xulosalar ishning mazmunidan kelib chiqishi va bir-ikki jumla orqali uning mohiyatini ochib beradigan bo'lishi kerak. Demak, muallif xulosa chiqarganda ishning asosiy mazmunini, uni amalda tatbiq etish haqidagi tavsiyalarini qisqacha yoritishi lozim.

Qo'yilgan vazifa va to'plangan materialning miqdoriga qarab xulosalar taxminan 3-5 punktdan iborat bo'lsa yetarlidir. Xulosa qismini haddan tashqari oshirib yuborish, unga xususiy va tasodifiy narsalar kiritish tavsiya etilmaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, xulosa va takliflardan so'ng foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Uni tuzishda quyidagi

tartibga rioya qilish zarur:

Muallif familiyasi, ismi, sharifi; maqolaning sarlavhasi; maqola chop etilgan jurnal yoki ilmiy to'plamning nomi; nashr etilgan joyi; tom, nomer; nashr etilgan yili; betlar.

Adabiyotlar ro'yxatida mualliflarning familiyasi va ularni asarlari alfavit bo'yicha joylashishi kerak. Bir xil familiyali mualliflar uchrab qolsa, ular ro'yxatda ismi sharifi bo'yicha yoziladi. Bitta muallifning turli kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, ro'yxatda familiyasini bir marta ko'rsatib, «yana» so'zini ishlatish va ishning nomini yozish kerak. Kitob mualliflar hamkorligida yozilgan bo'lsa, ro'yxatda ularning familiyalari alfavit bo'yicha joylashtiriladi. Xorijiy mualliflarning familiyasi chet tilida yoziladi, ro'yxatni oxirida beriladi.

### 6.5. Kurs ishini himoyaga tayyorlash

Ishning matni yozilib va tekshirilib, illustratsiyalar tayyorlanib, adabiyotlar ro'yxati tuzib bo'lgandan so'ng, ilmiy rahbarning ruxsati bilan kompyuterda yozish uchun beriladi. Kurs ishi standart yozuv oq qog'ozida, Word dasturi Times New Roman (o'zbek tilida) shriflarida 14 kegel kattaligida yoziladi. 1,5 intervalda chapdan 30, o'ngdan 15, yuqori va pastdan 25 mm joy qoldirilgan holatda sahifalanadi.

Sarvaraq sodda va chiroyli bo'lishi rang-barang bo'lib, bachkanalashib ketmasligi kerak. Sarvaraqda ma'lum izchillik va tartib bilan quyidagilar joylashtiriladi: Oliy o'quv yurtining nomi, fakultet va kafedra, kurs ishining mavzusi, bajargan muallifning nomi va familiyasi, o'qiydigan guruhi, kursi, ilmiy rahbarning unvoni, familiyasi va ism-sharifi, kurs ishi bajarilgan vaqt va shahar.

Kurs ishining rejasi, mundarija sarvaraqdan keyin qo'yiladi va uning tuzilishini boblar yoki bo'limlar bo'yicha betlari bilan ko'rsatib turadi.

Ish kompyuterdan chiqqach, talaba uni:

a) diqqat bilan o'qib, qo'lyozma to'liq ko'chirilganligi, betlar to'g'ri belgilanganligini aniqlashi;

b) rasm va jadvallar matnda to'g'ri ko'rsatilganligini tekshirishi;

d) matnni diqqat bilan o'qib, undagi xatolarni bartaraf etishi;

e) ishni muqovalatishi zarur.



Muqovalangan ishga qo'l quyib, ilmiy rahbarga qo'l qo'ydirib, kafedraga taqriz yozish uchun topshirish kerak. Kurs ishini ilmiy rahbar va opponent qarshi chiquvchi tekshirib chiqqanlaridan so'ng himoyaga tavsiya etiladi.

Taqrizlar bilan tanishib, talaba himoyaga tayyorlanadi va ishni kafedraning ilmiy metodik kengash a'zolarining ishtirokida yoq-laydi.

Himoya muddatlari dekanat tomonidan belgilanadi. Yoqlash uchun 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi, shu vaqt mobaynida talaba o'z bilimlarini aniq va lo'nda ifodalashi, savollarga to'g'ri va yetarlicha to'liq javob berishi kerak.



Kurs ishining bahosi himoyadan so'ng metodik kengashi tomo-nidan muhokama qilib qo'yiladi va eshittiriladi.


## Tasviriy san'atdan metodik rasmlar




























## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 tomlik, 1-tom, — T.: San'at, 1986.— 190-bet.
2. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash. T.: O'qituvchi. 1984.
2. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metodik tavsiyalar. T.: 1989.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T.: 1996.
4. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. T.: Bilim, O'MKHTM, 2005.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at atamaları. T.: Nizomiy nomidagi TDPU rizografida, 2003.
6. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.
7. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. T.: Cho'lpon, 2006.
8. Boymetov B., Abdurasulov S. Chizmatasvir. T.: G'.G'ulommatbaa ijodiy uy. 2004.
9. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: Mehnat, 1991.
10. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. T.: Mehnat. 1992.
11. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
12. Majidov J. Tasviriy san'atdan maktabdan tashqari ishlar. T.: O'qituvchi. 1983.
13. Mirzaahmedov M.A. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. T.: O'qituvchi, 1976.
14. Nabiyev M. Rangshunoslik. T.: O'qituvchi. 1995.
15. Ten N.D. Gips modellarning rasmi. T.: O'qituvchi, 1994.
15. Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. T.: Fan. 1995.
16. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: Fan. 2004
17. Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan. T.: 1993.
18. Egamov H. Vo'yoqlar bilan ishlash. T.: O'qituvchi. 1981.
19. Алексин А.Д. О языке изобразительного искусства. М.: 1984.
20. Барш Л.О. Рисунок в средней художественной школе. М.: 1987.
21. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты. М.: 1989.

22. Кузин В.С. Психология. М.: 1982.
23. Пучков А.С., Трислев А. В. Методика работы над натюрмортом. М.: 1982.
24. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. М.: Просвещение. 1980.
25. Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок. М.:, 1984.
26. Терентьев А.Е. Рисунок в педагогической практике учителя изобразительного искусства. М.: 1981.
27. Харитонов М.Ф. Рисование мелом на классной доске. М.: 1982.
28. Яшихин А.П. Живопись. М.: 1985.
29. Сайт. [www](http://www).

S. ABDIRASILOV, N. TOLIPOV

# **Tasviriy san'at o'qitish metodikasi**

(amaliy mashg'ulotlar)

**Toshkent – «ALQACHI» – 2007**

*Muharrir:* A. Eshov  
*Texnik muharrir:* A. Moydinov  
*Musahhiha:* G. Karimova  
*Sahifalovchi:* Sh. Xolmuhamedov

Bosishga ruxsat etildi 15.08.2007. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«TimesUZ» garniturası. Ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 9,0. Nashr bosma tabog'i 10,0  
Adadi 500. Buyurtma № 11.

«Aloqachi matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.  
700000, Toshkent sh., A.Temur ko'chasi, 108-uy.